

U. MASHARIPOVA, M. UMAROVA, D. BAYNAZAROVA

ONA TILI

1-SINF

*(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun
ilg'or pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalarni
ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma)*

«SHARQ» NASHRIOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2014

UO‘K 811.512.133(072)

KBK 81.2O‘zb

U – 47

Taqrizchilar:

D.X. Shodmonqulova – Nizomiy nomidagi TDPU «Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi» kafedrası professori, filologiya fanlari nomzodi;

Z. Muratova – Respublika ta‘lim markazi «Boshlang‘ich ta‘lim» bo‘imi bosh metodisti;

Sh. Yo‘ldosheva – Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahri 1-DIU maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

U – 47 Ona tili: 1-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / U. Masharipova, M. Umarova, D. Baynazarova. – T.: «Sharq», 2014. – 120 b.

Mustaqillikdan buyon o‘tgan davr mobaynida uzluksiz ta‘limning barcha jabhalari-da jiddiy sifat va miqdor o‘zgarishlari sodir bo‘layotgan bir paytda boshlang‘ich ta‘limni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zamon talabidir. Ushbu metodik qo‘llanmada 1-sinf ona tili darslarining maqsad va vazifalari, o‘quv jarayonining samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tuzilgan dars ishlanmalari berilgan.

ISBN 978-9943-26-

UO‘K 811512.133(072)

KBK 81.2O‘zb

MULTIMEDIA SHARTLI BELGILARI



— kuzating



— husnixat daqiqasi



— ta‘limiy o‘yin



— uyga vazifa



— dam olish daqiqasi



— dars tugadi

Xalq ta‘limi vazirligi Respublika ta‘lim markazi boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-Metodik Kengashining 2014-yil 26-iyundagi 2-sonli yig‘ilishida muhokama etilib, foydalanishga tavsiya etildi.

Respublika davlat budjet mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-26-

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014.

SO‘ZBOSHI

Bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi talab etmoqda.

I. A. KARIMOV

Davlatimiz hukumati tomonidan 2014-yil «Sog‘lom bola yili» deb e‘lon qilindi va Davlat dasturida boshlang‘ich sinflarda o‘qitish sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘pgina vazifalar belgilab berildi.

Boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta‘lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi va bugungi kunda u boshlang‘ich ta‘lim darsliklari va metodik qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o‘tamoqda. Boshlang‘ich ta‘lim standartida o‘quvchilar o‘qish malakalarining sifatlarni va ijodiy fikrlay olishlari, o‘z-o‘zini nazorat qila bilishlari, nutq madaniyatini o‘zlashtirishlari, husnixat bilan savodli yozish ko‘nikmalarini egallashlari alohida qayd etilgan. Boshlang‘ich sinfda ona tili ta‘limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarga xizmat qiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Yurtboshimiz I. A. Karimov ta‘kidlaganidek: «Zamonaviy o‘qituvchi – kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalar muallifi, ishlab chiqaruvchi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi»¹.

Mazkur metodik qo‘llanmada 1-sinf ona tili darslarining maqsad va vazifalari, ona tili darslarida ilg‘or pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, darsda o‘quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash orqali o‘zlashtirishlarni ta‘minlash maqsadida multimedia ilovalar tayyorlandi. Ularda o‘quvchilarni to‘g‘ri talaf-

¹ «Ma‘rifat» gazetasi, 2010-yil 29-sentabr soni.

fuzga, til ma'nolarini to'g'ri anglashga, og'zaki va yozma nutqlarining savodli bo'lishiga, husnixat bilan savodli yozishga o'rgatish; Vatanimizning o'tmishi, buguni va mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, milliy urf-odatlarini, borliq va jamiyat haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitish maqsad qilib olindi. Bu maqsadni amalga oshirishda turli metodlardan va metodik ish turlaridan foydalanildi. Ular o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga, xulosalar chiqarishga undaydi, ona tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Mazkur metodik qo'llanmada ishlanmasi berilmagan darslar boshqa darslar tuzilishidan foydalangan holda tashkil qilinadi.

Ushbu metodik qo'llanma yuzasidan bildirilgan fikrlarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

Boshlang'ich sinfda «Ona tili» fanini o'qitishning maqsad va vazifalari

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili fanida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasaliş usullari haqidagi (so'z yasalişiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalişiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish

ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday fanlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili fanidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan fanlararo ko'nikmalar bir-biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili fani 1–4-sinflarda tilning hamma tomonlari o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasalishi haqida elementar bilimlar beriladi. Faning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jaryonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Ona tili darklarida o'quvchilarga «Tovushlar va harflar», «Bo'g'in», «So'zning ma'nosi», («Shaxs va narsani bildigan so'zlar», «Belgini bildirgan so'zlar», «Harakatni bildirgan so'zlar», «Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar») «Nutq va gap» kabi bo'limlar asosida tilga oid elementar bilimlar beriladi. Bunda, asosan, grammatik tushunchalarni amaliy o'rgatishga e'tibor qaratiladi. O'quvchi mashq matnini o'qish va yozish jarayonida grammatik tushuncha va qoidalarni amaliy bajarib boradi hamda keyingi sinflarda bu ish turi tushunchalarni nazariy o'rganishga zamin yaratadi.

Dasturning «Grammatika, imlo va nutq o'stirish» bo'limi har bir sinfda quyidagicha qismlarni o'z ichiga oladi: «Tovushlar va harflar», «So'z», «Gap», «Bog'lanishli nutq». Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt sinfda o'rganiladi. Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallaydilar.

O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. 1-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim:

- a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz;
- b) harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz;
- d) harf – tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi.

O'quvchilar ko'pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yo'l qo'yadilar. Ularda grafik malakani shakllantirish uchun quyidagilarni o'rgatish zarur:

1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, *kitob* soʻzidagi *b* harfi *p* tovushini, *kitobim* soʻzidagi *b* harfi *b* tovushini ifodalaydi);

2) *jayra*, *jajji* soʻzlaridagi *j* tovushi (jarangli, portlovchi) ham, *jurnal*, *vijdon* soʻzlaridagi *j* tovushi (jarangli, sirgʻaluvchi) ham bitta *j* harfi bilan ifodalanadi;

3) *tong*, *keng* soʻzlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush (*ng*) ikki harf birikmasi (*ng*) bilan ifodalanadi;

4) *sh*, *ch* harf birikmalari ham bir tovushni ifodalaydi (*shamol*, *choy*).

Dasturga koʻra oʻquvchilarda soʻzni boʻgʻinlarga boʻlish koʻnikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. Boʻgʻin murakkab tushuncha boʻlgani uchun boshlangʻich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Oʻquvchilar soʻzni boʻgʻinlarga boʻlishda soʻzda nechta unli boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod oʻrgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan soʻzdan dastlab unli harfni topadilar, keyin soʻzda nechta unli boʻlsa, uni shuncha qism (boʻgʻin)ga boʻladilar.

1-sinfda oʻquv yilining birinchi yarmida ogʻzaki va yozma tarzda boʻgʻinlarga boʻlish, shuningdek, oʻqituvchi topshirigʻiga koʻra muayyan boʻgʻinli soʻz tanlash mashqlari har kuni oʻtkaziladi. Soʻzni boʻgʻinlarga toʻgʻri va tez boʻlish koʻnikmasini hosil qilish 1-sinfda oʻtkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. Oʻquvchilar oʻqish va yozish jarayonini egallashda mana shu koʻnikmaga tayanadilar. Oʻzbek grafikasida boʻgʻin tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi. Oʻquvchi soʻzni toʻgʻri yozish uchun uni avval boʻgʻinlarga boʻladi. Boʻgʻinlardagi tovushlarning oʻzaro bir-biriga taʼsirini aniqlaydi, undosh va unli tovushlarni ifodalash uchun zarur harflardan foydalanadi.

Ona tili darslarida asosiy diqqat bolaning nutq va lugʻat boyligini oʻstirish, imloviy savodxonligini tarkib toptirish, yaʼni toʻgʻri oʻqish va yozish hamda husnixat koʻnikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Darslikda oʻquvchilarning til materiallarini oson oʻzlashtirishlarini, grammatik tahlilni sodda, aniq yoʻllar bilan amalga oshirishlari va ijodiy fikrlashga oʻrgatish maqsadida turli jadval, rebus va boshqotirmalardan foydalanilgan.

Mashq shartlarida oʻquvchilarni ijodiy fikrlashga, mulohaza yuritishga undovchi, taqqoslash va kuzatishga asoslangan holda xulosa chiqarishga yoʻllovchi, tahlilni muayyan izchillikda amalga oshirishni taʼminlovchi topshiriqlarning berilganligi dastur talablarini bajarishga xizmat qiladi.

**Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya
texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan dars namunalari**

1-dars

MAVZU: ONA TILI HAQIDA SUHBAT

Darsning texnologik xaritasi

O'quv materiali: Ona tili haqida suhbat
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: ona tili, nutq, og'zaki va yozma nutq, tovush va harf. Mavzuga ajratilgan vaqt: 45 minut.
Mavzuning qisqacha ta'rifi: o'quvchilar dars yakunida ona tili fani haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar, nutq, og'zaki va yozma nutq, tovush va harflar haqidagi bilimlar eslatiladi.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakani shakllantiruvchi dars. Dars metodi: suhbat, analiz-sintez, «Aqliy hujum», tushuntirish, ta'limiy o'yin. Dars jihozi: darslik, rag'batlantirish uchun kartochkalar, mavzuga mos rasmlar, multimedia ilovalar. Nazorat: og'zaki nazorat, o'zini o'zi nazorat qilish. Baholash: o'quvchilar dars yakunida baholanadilar.
Darsning maqsad va vazifalari
Darsning maqsadi: a) ta'limiy maqsad: ona tili, ona tili predmeti haqida ma'lumot berish, nutq, o'zaki va yozma nutq haqidagi bilimlarini hosil qilish. Tovush va harflarning farqini o'quvchi ongiga singdirish, to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish; b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona tili faniga muhabbat uyg'otish, oila va uning a'zolariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish; d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish, fikrlash, xulosa chiqarishga o'rgatish.
Kutilayotgan natija: dars yakunida o'quvchilar ona tili fani haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi


Ishning nomi	Bajariladigan ish nomi	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	1. Salomlashish. 2. O'quvchilar davomatini aniqlash. 3. O'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish. 4. Dars qoidalarini eslatib o'tish, diqqatni jamlash mashqi. (1-ilova)	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich. Yangi mavzu bayoni	O'quvchilarni darslik bilan tanishtirish. (2-ilova)	Suhbat	4 daqiqa
	«Ona tilim» she'ri bilan tanishtirish. (3-ilova) Multimedia. (1-ilova)	Suhbat	4 daqiqa
	Lug'at ustida ishlash. (4-ilova) 1-mashq asosida mavzu bayoni. (5-ilova) Multimedia 2-ilova	Tushuntirish	8 daqiqa 6 daqiqa
3-bosqich. Mustahkamlash	Husnixat daqiqasini tashkil qilish. (6-ilova)	Husnixat mashqi	10 daqiqa
	«Qisqa savolga qisqa javob». (7-ilova)	Ta'limiy o'yin	5 daqiqa
4-bosqich Darsni yakunlash	Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.	Suhbat	3 daqiqa
5-bosqich. Uyga vazifa	Uyga vazifa qilib 2-mashqni bajarib kelish topshiriladi. Mashq sharti tushuntiriladi.	Suhbat	3 daqiqa

Darsning borishi:

1-ilova.

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchi axborotini tinglash (navbatchi o'zini tanishtiradi, oy, kun, fasl, o'quvchilar davomati haqida ma'lumot beradi);
- o'quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish;
- diqqatni jamlash mashqlarini bajarish. (Bunda o'quvchilarning diqqatini jamlash uchun «Delfin dengizda» mashqi o'tkaziladi. Buning uchun o'qituvchi



qo‘l harakatlari bilan suv to‘lqini va delfinning suvda sakrash holatini ko‘rsatadi. O‘quvchilar delfin sakrash holati ko‘rsatilganda bir marotaba qarsak chalishlari kerak. Bu holat 3 marotaba takrorlanadi.) Yoki mashqni multimedia orqali monitorda ko‘rib bajaradilar).

O‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilash va darsning «Do‘stona kelishuv» qoidalarini eslatib o‘tish:

1. Intizom.
2. O‘zaro hurmat.
3. Faollik.
4. Aniqlik.
5. Ahillik.
6. O‘ng qo‘l qoidasi.

II. Yangi mavzu bayoni. 2-ilova.

O‘quvchilarni darslik bilan tanishtirish maqsadida quyidagi savollar asosida suhbat tashkil etiladi:

- O‘zbekiston Respublikasining davlat tili qaysi til?
- O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili.
- O‘zbek tiliga qachon Davlat tili maqomi berilgan?
- O‘zbek tiliga **1989-yil 21-oktabrda** Davlat tili maqomi berilgan.
- Hammamiz qaysi tilda gaplashamiz?
- Hammamiz **o‘zbek tilida** tilda gaplashamiz.
- Biz so‘zlashadigan til qaysi millatga xos?
- Biz so‘zlashadigan til **o‘zbek millatiga** millatga xos.
- O‘zbek millati ko‘p yillik tarixga ega. O‘zbek tilining boyligi va jozibasini dunyoga tanitgan buyuk mutaffakir bobomiz kim?

O‘zbek tilining boyligi va jozibasini dunyoga tanitgan buyuk mutaffakir bobomiz **Alisher Navoiy**.

- Alisher Navoiyning qanday hikmatli soʻzlarini bilasiz?
(Oʻqituvchi hikmatli soʻzlarning maʼnosi ustida tushuntirish ishlari olib boradi.)

*Oz-oz oʻrganib dono boʻlur,
Qatra-qatra yigʻilib daryo boʻlur.*

*Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim,
Orlanib soʻramagan oʻziga zolim.*

Tilga eʼtibor – elga eʼtibor.

Oʻqituvchi soʻzi:

– Agar odamlar oʻz tilini unutsalar, millatini yoʻqotadilar. Shuning uchun siz oʻzbek tilini yaxshi bilib olishingiz lozim. Buning uchun maktabda ona tili fani oʻrgatiladi. Nima uchun ona tili fani dedik? Oʻquvchilarning javoblari tinglanadi va bildirilgan fikrlar xulosalanadi va izohlanadi.)

– Bola goʻdakligidan ona allasini ona tilida eshitadi. Vatanimiz biz uchun yagona, onamiz ham yagona, shuning uchun ona-Vatan, ona tilim, deymiz. Sizga berilgan «Ona tili» darsligingiz ona tilini oʻrganib olishingiz uchun yordam beradi. Bu darslikni olimlarimiz: Talʼat Gʻafforova, Ergash Shodmonov, Xolida Gʻulomovalar yozishgan. Darslikdagi mashq va topshiriqlar sizni toʻgʻri va mazmunli gapirishga, toʻgʻri va chiroyli yozishga oʻrgatadi.

Shundan soʻng darslik muqovasidagi rasm asosida suhbat uyushtiriladi. Darslik mualliflari va shartli belgilari tanishtiriladi.

3-ilova.

Multimedia 1-ilova.

Darslik muqovasidagi A. Navoiy haykali, bogʻ-gulzorlar, guldasta koʻtargan oʻquvchilar va quyosh tasvirining mohiyati, yaʼni buyuk mutaffakir bobomizning oʻzbek tilining jahonga tanitishdagi ulkan xizmatlarini ulugʻlab shahrimizda uning sharafiga qoʻyilgan haykali, ajdodlarimiz mehnatidan faxrlangan va ularga oʻxshashni orzu qilgan oʻquvchilar, yurtimizning tinch va faravonligini aks ettiruvchi bogʻ-gulzorlar hamda uchayotgan qushlar, nur sochayotgan quyosh – Vatanimizning obodligi haqida oʻqituvchi tomonidan tushuntiriladi.

«Ona tilim» sheʼri bilan multimedia orqali tanishtiriladi. Buning uchun videotasvir namoyish etiladi. Sheʼr yuzasidan quyidagicha suhbat tashkil qilinadi:

- Sheʼr nima haqida ekan?

- She’r **Ona tili** haqida ekan.
- She’ning muallifi kim?
- She’ning muallifi **Muhammad Yusuf**.
- Ona tili haqida she’rda nima deyilgan?
- Ona tili haqida she’rda **jon tilim, jon-dilim** deyilgan.
- «Yuragimning to‘rida Sayrab turgan bulbulim», – misralarining ma’nosini tushuntiring.
- O‘quvchilarning javoblari tinglanib, mashqqa yakun yasaladi.

4-ilova. Lug‘at ustida ishlash.

She’rdagi izohtalab so‘zlar ma’nosi ustida ishlashda o‘qituvchi o‘quvchilarga izohtalab so‘zga ma’nodosh so‘z topish topshirig‘ini beradi. Quyidagi so‘zlarga izohli lug‘atda berilgan ta’rifni keltiramiz:

yuragimning to‘rida – *to‘ri so‘zining ma’nosi joyning yuqori qismi, ya’ni quyiga qarama-qarshi tomoni*

suyumli – *eng yaxshi ko‘rilgan*

suyuk – *hurmat-izzat qilgan*

ardoqli – *e’zoz-ehtiromga loyiq*

buyuk – *ulkan, katta*



5-ilova. Multimedia 2-ilova.

«Oila» mavzusidagi rasmda buva, buvi, ota, ona, qiz va o‘g‘il farzandlar tasvirlangan. O‘qituvchi tomonidan beriladigan quyidagi savollar yordamida oila a’zolarining nomi ketma-ketlikda aytiladi.

Savol:

Bu kim? (Ota).

Shunda ota rasmi ekranda kattalashtirilib ko‘rsatiladi va rasm ostida ota so‘zi hosil bo‘ladi. O‘quvchilar bu so‘zni o‘qiydilar. O‘qituvchi tomonidan beriladigan keyingi savollar yordamida ota so‘zida nechta harf va tovush borligi aniqlanadi. Shundan so‘ng ota rasmi o‘z o‘rniga qaytariladi. Shu tariqa oiladagi kishilar nomlari tahlil qilinadi.

1-mashqda keltirilgan so‘zlar darslikdan o‘quvchilarga o‘qitiladi va o‘qitish jarayonida savollar yordamida so‘zdagi tovush va harflar soni aniqlanadi. Qaysi tovush so‘zning ma’nosini o‘zgartirishi aytib o‘tiladi.

Aka – so‘zidagi *a* unlisi *u* unlisi bilan almashtirilganda *uka* so‘zi hosil bo‘lishi, *ota* so‘zida *t* undhoshi *n* va *p* undoshlari bilan o‘zgartirilganda

ona va *opa* soʻzlari hosil boʻlishi, *bola* soʻzida *b* undoshi *x* undoshi bilan oʻzgartirilganda *xola* soʻzi hosil boʻlishi, *buva* soʻzidagi *a* unlisi *i* unlisi bilan almastirilganda *buvi* soʻzi hosil boʻlishi koʻrsatib oʻtiladi.

Bu soʻzlar daftarga husnixat asosida koʻchirib olinadi, oʻzgargan harflar tagiga bir chiziqcha chiziladi.



Dam olish daqiqasi. (Videotasvirda koʻrib borilgan harakatlar birga bajariladi).

Ayiq yurar lapanglab, (Ayiqa oʻxshab lapanglab yuriladi)

Quyong yuradi sakrab. (Quyonga oʻxshab sakrab yurishi koʻrsatiladi)

Ayiqning uyi katta, (Oʻng qoʻl aylana holatida yuqoriga koʻtariladi)

Quyonniki kichkina. (Chap qoʻl pastga tushiriladi)

II. Mustahkamlash.



6-ilova. «Husnixat daqiqasi»ni tashkil qilish.

Multimedia ilova asosida bosh va kichik Aa harfi va harf unsurlarining yozilishi koʻrsatiladi. Gap yozishda harflarning bogʻlanishi tushuntiriladi:

Aa, Aa, Aa.

Adiba aqlli qiz.

7-ilova. «Qisqa savolga qisqa javob» taʼlimiy oʻyini orqali oʻtilgan mavzu yuzasidan quyidagi savollarga bir soʻz bilan javob berishlari kerak boʻladi:

1. Oʻzbekistonning poytaxti qayer?

(*Toshkent.*)

2. Insonning eng yaqin doʻsti nima?

(*Kitob.*)

3. «Ona tilim» sheʼrining muallifi kim?

(*Muhammad Yusuf*)

4. Oʻzbek tilidagi harflar jamlanmasi nima deyiladi?

(*Alifbo.*)

5. Oʻzbek tilida nechta tovush bor?

(*30 ta.*)

6. Oʻzbek tilida nechta harf bor?

(*29 ta.*)

Bundan tashqari ushbu savollar javobini quyidagi boshqotirmadan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin.

1	T	o	sh	k	e	n	t								
2	K	i	t	o	b										
3	M	u	h	a	m	m	a	d	Y	u	s	u	f		
4	A	l	i	f	b	o									
5	O‘	t	t	i	z										
6	Y	i	g	i	r	m	a	t	o‘	q	q	i	z		

Savollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantirilib, baholanadilar.

III. Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

Dars so‘ngida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.



Multimedia 3-ilova. Uyda 2-mashqni bajarib kelish aytiladi. Mashqda so‘zlar va so‘zlarda nechta harf borligi katakchalar bilan belgilangan. O‘quvchilar katakchaga so‘zlardagi harflarni joylashtirib chiqadilar va qaysi harf chiziqcha chizilgan katakchaga to‘g‘ri kelsa, shu harfni tashlab, yangi so‘z hosil qilishlari kerakligi aytiladi.

N a m u n a :

an\kor – anor

bah\ok – baho

\kunar – unar

\don\q – ona, don

Ushbu topshiriqni multimedia ilovasi orqali tushuntirish mumkin.

O‘quvchilarga yaxshi tilaklar bildirilib, darsga yakun yasaladi.



2-dars

MAVZU: TOVUSH VA HARF

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'qirish, og'zaki nutqni yozma nutqda ifodalay olishlarini tekshirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatishga o'rgatish va ahillik, inoqlik xislatlarini tarkib toptirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning chiroyli va savodli yozishlarini nazorat qilish.

Dars turi: nazorat darsi.

Dars metodi: suhbat metodi, analiz-sintez, induksiya.

Dars jihozi: darslikda berilgan 3-mashqdagi rasm asosida multimedia ilovasi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- davomatni aniqlash;
- navbatchi axborotini tinglash;
- sinf tozaligini, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uy vazifasi 2-mashq shartiga ko'ra tekshirladi.

- So'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilayotgan tovushni ayting.

Uyga vazifa so'ralayotganda so'zlarning adabiy-orfoepik talaffuzi ustida ham ishlanadi: *bahor*, *baho* so'zlarining birinchi bo'g'inidagi *a* tovushini *a* deb talaffuz qilish to'g'ri talaffuz sanalishi, *h* tovush-harfi imlosi suhbat asosida qayd etiladi. Quyidagi savollardan foydalanib darslikdagi qoida o'quvchilarning javoblari asosida keltirib chiqariladi:

- Tovushlar yozuvda nimalar bilan ifodalanadi?
- *Harflar bilan.*
- Harflarni biz nima qilamiz?
- *Yozamiz.*
- O'zbek yozuvida nechta harf bor?
- *29 ta.*

Tovushlar harflar bilan ifodalanadi. Harflarni yozamiz, ko'ramiz va o'qiyamiz. O'zbek yozuvida 29 ta harf bor.

III. Nazorat ishini tashkil etish.

Darslikda berilgan 3-mashqdagi rasm asosida multfilm namoyish etiladi. Unda qish fasli tasvirlangan. Daraxtlar, dalalar qor bilan qoplangan. Bolalar qishki kiyimda qishki o‘yinlar o‘ynayapti. Namoyish tugagach, darslikdagi rasmsga aylanadi.

Namoyish tugagach, quyidagi savollar beriladi:

– Rasmda qaysi fasl tasvirlangan?

– *Qish fasli.*

– Qishda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

– *Havo sovuq bo‘ladi, qor yog‘adi.*

– Hayvonlar va qushlar qishda qanday kun kechiradi?

(Masalan, ayiq issiq inida uyquda bo‘ladi, boshqa hayvonlar yashash uchun kurashadilar.)

– Qishda bolalar qanday o‘yinlar o‘ynaydi?

– *Bolalar qorbo‘ron o‘ynaydilar, chana va chang‘ida uchadilar.*

– Rasmdagi bolalarga ism qo‘ying. *(Bolalar o‘zlari yoqtirgan ismlarni qo‘yadi).*

– Kimlar qorbo‘ron o‘ynayapti?

– *..., ..., ...lar qorbo‘ron o‘ynayapti.*

– Bolalar yana qanday o‘yinlar o‘ynayaptilar?

– *..., ..., ..., ...lar qorbobo yasashyapti, ..., ...lar chanada uchyapti.*

O‘qituvchi darslikdagi savollarga o‘quvchilar bergan javoblarning mazmun jihatidan to‘g‘ri tuzilganini namuna uchun doskaga yozadi. Har bir o‘quvchi daftarlariga o‘zi tuzgan javoblarni yozadi. O‘quvchilarning savollarga bergan javoblaridan ba‘zilari namuna uchun o‘qitiladi.



Dam olish daqiqasi.

IV. Darsga yakun yasash. O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra rag‘batlantirilib, baholanadi hamda daftarlar tekshirish uchun yig‘ib olinadi.

V. Uyga vazifa berish.



4-mashq sharti tushuntiriladi, multimedia ilova namoyish etiladi. Mashqda berilgan rasmdagi narsalar nomi yoziladi, tovushlar va harflar soni, qaysi tovushlar so‘z ma‘nosini o‘zgartirishi aniqlanadi:

anjir – zanjir

qayiq – ayiq



3-d a r s

MAVZU: TOVUSHLAR VA HARFLAR

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning nutq tovushlariga oid bilimlarini mustahkamlash, so'zdagi bir tovushni o'zgarishi yangi so'z hosil qilishi haqidagi tushunchalarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni tabiat ne'matlarini uvol qilmaslikka va o'zgaralar mehnatini qadrlashga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar nutqini oqurug', bo'rikalla, asati, ko'kturna so'zlari bilan boyitish, og'zaki nutqda ulardan foydalanishga o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darsi.

Dars metodi: suhbat, analiz-sintez, kuzatish.

Dars ihozi: darslikdagi mashqlar asosidagi multimedia ilovalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- navbatchi axborotini tinglash;
- sinf tozaligini, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uy vazifasi qilib berilgan **4-mashq** shartiga ko'ra tekshirladi.

- So'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilayotgan tovushni ayting.

Uyga vazifa so'ralayotganda so'zlarning adabiy-orfoepik talaffuzi ustida ham ishlanadi:

anjir – zanjir

qayiq – ayiq

So'zlarining ikkinchi bo'g'inidagi *i* tovushi qisqa talaffuz qilinishi suhbat asnosida eslatiladi.



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida bosh va kichik Aa harfi va harf unsurlarining yozilishi ko'rsatiladi. Gap yozishda harflarning bog'lanishi tushuntiriladi:

Bb, Bb, Bb, Bb.

Bola aziz, odobi undan aziz.

III. Mustahkamlash.

5-mashq asosida multimedia ilova namoyish etiladi. O‘quvchilarga so‘zlar-ning bitta tovushini o‘zgartirib, yangi so‘z hosil qilishlari kerakligi aytiladi.

qovun – sovun

ikki – _____

mart – _____

so‘qmoq – _____

savlat – _____

Mashq shartini bajarish uchun o‘quvchilar multimedia 1-ilovadagi harflardan foydalanib so‘zlarni yozishlari lozim. So‘z to‘g‘ri yozilsa, «**To‘g‘ri**», aksi bo‘lsa, «**O‘ylab ko‘ring**» degan ovoz eshutiladi. O‘quvchilar quyidagi so‘zlarni yozishlari kerak:

qovun – sovun

ikki – ukki

mart – mard

so‘qmoq – to‘qmoq

savlat – davlat

Mashq to‘liq bajarilgach, «**Ofarin**» so‘zi va qarsak ovozi eshutiladi. Namoyish tugagach, quyidagi savollar beriladi:

– Qaysi tovushlar so‘zlarning ma’nosini o‘zgartiryapti?

– *q – s, i – u, t – d, s – t, s – d* tovushlari.

– Bu so‘zlarni talaffuz qilganimizda ular bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?

– Tovush bilan.

– Shu so‘zlarni yozganimizda ular bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?

– Harf bilan.

Mashqdagi so‘zlar ma’nosi ustida ishlash maqsadida ma’nodosh so‘z toptiriladi.

Lug‘at ishi:

mard – jasur, qo‘rqmas, botir

davlat – boylik yoki ma’noga qarab mamlakat

savlat – insonning butun gavda ko‘rinishi uning savlati deyiladi

so‘qmoq – bir kishi yuradigan yolg‘izioyoq yo‘l

to‘qmoq – uchi to‘mtoq tayoq

– So‘z ma’nosini o‘zgartirayotgan harfning tagiga chizing.

«**Kim ko‘p so‘z tanlaydi**» ta‘limiy o‘yini o‘tkaziladi. Bunda *toy, don* so‘zlaridagi bitta tovushni o‘zgartirib, yangi so‘zlar hosil qilish lozimligi tushuntiriladi.

Toy – soy, joy, moy, loy, boy.

Don – non, kon, jon, xon, son, yon, shon.

Bitta undosh harf o‘zgarishi so‘zimizni butunlay boshqa ma’noga o‘zgartirib yuborishi mumkinligi aytiladi.

6-mashq. 2-multimedia ilova asosida bajariladi. Unda mashq shartiga ko‘ra she‘r ifodali o‘qiladi.

QOVUNLAR

*Ananas qasir-qusur,
Pichoqqa ilinmaydi.
Oqurug‘ – mayiz, holva,
Po‘chog‘i bilinmaydi.
Bo‘rikalla, asati,
Ko‘kturnasin aytmayman.
Ming til bilan so‘zlab ham
Maqtoviga yetmayman.*

Tolib Yo‘ldosh

O‘qituvchi tomonidan she‘r matni tahlil qilingach, o‘quvchilar she‘rdagi qovun nomlarini topadi. Ilovadagi qovun nomi to‘g‘ri belgilanganda shu turdagi qovun rasmi monitorida ko‘rinadi. Qovun nomi no‘to‘g‘ri topilsa, rasm chiqmaydi. Qovun nomlari aniqlanib bo‘lingach, daftarga yozdiriladi:

Ananas, bo‘rikalla, asati, ko‘kturna.

O‘quvchilar yozganlarini kitobga qarab tekshiradilar, xatoga yo‘l qo‘yishgan bo‘lsa to‘g‘rilaydilar.

– Oqurug‘ – qovunning nomi, nechta so‘zga ajratish mumkin?

– *Oq va urug‘ – 2 ta so‘zga ajratish mumkin.*

– U qanday yozilar ekan?

– *Qo‘shib yoziladi.*

Tovush – harf tahlili o‘tkaziladi:

Ananas – 6 ta tovush, 6 ta harf.

Oqurug‘ – 6 ta tovush, 6 ta harf.

Bo‘rikalla – 9 ta tovush, 9 ta harf.

Asati – 5 ta tovush, 5 ta harf.

Ko‘kturna – 8 ta tovush, 8 ta harf.

Esingizda tuting.

– **Bo‘rikalla** so‘zida qaysi harf ikki marta yoziladi? Shu so‘zning yozilishini eslab qolmasangiz, nechta xato qilasiz? (So‘zda 2 ta *l* undoshi ketma-ket kelishi izohlanadi.)



Dam olish daqiqasi.

IV. Mustahkamlash. Tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz. Ular so‘z ma‘nolarini o‘zgartiradi. Shuning uchun so‘zlarni yozganda aytilayotgan tovushni ifodalovchi harfni yozish kerak.

Harflarni yozamiz, ko‘ramiz, o‘qiymiz.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi va rag‘batlantiriladi.



VI. Uyga vazifa berish.

7-mashq. O‘quvchilar ota, non, aka, tok, ana so‘zlarini tuzadilar va yozadilar.

– Bu mashq orqali o‘quvchilarda tovushlar o‘zgarishi bilan so‘z ma‘nosi ham o‘zgarishi to‘g‘risida bilim, ko‘nikma, malakalar hosil qilinadi.

	→			
↓	o	t	a	↓
	n	o	n	
	a	k	a	
	→			

«Tovush va harf» mavzusiga bag‘ishlangan darslar darslikdagi savollar asosida yakunlanadi.

Savollarga og‘zaki javob bering:

1. O‘zbek tilida nechta tovush bor?
2. Tovushlar yozuvda nimalar bilan ifodalanadi?
3. O‘zbek tilida nechta harf bor?
4. Nimani talaffuz qilamiz va eshitamiz?
5. Nimani yozamiz, ko‘ramiz, o‘qiymiz?



4 - d a r s

MAVZU: UNLI TOVUSHLAR VA HARFLAR

Darsning texnologik xaritasi

O‘quv materiali: Unli tovushlar va harflar.
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: tovush, harf, unli tovushlar, ovoz va shovqin. Mavzuga ajratilgan vaqt: 45 minut.
Mavzuning qisqacha ta’rifi: o‘quvchilar dars yakunida tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra 2 turga bo‘linishi, unli tovushlarning to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va ovozdan hosil bo‘lishi, unli tovushlar so‘z ma’nosini farqlashga xizmat qilishi haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: yangi bilim ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars. Dars metodi: suhbat, analiz-sintez, tushuntirish, ta’limiy o‘yin. Dars ihozi: darslik, mavzu asosida tayyorlangan slayd, rag‘batlantirish uchun kartochkalar, mavzuga mos rasmlar, multimedia ilovalar. Nazorat: og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘zini o‘zi nazorat qilish. Baholash: o‘quvchilar dars yakunida baholanadilar.
Darsning maqsadi va vazifalari
Dars maqsadi:
a) ta’limiy maqsad: tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra 2 turga bo‘linishi, unli tovushlarning belgilari: to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va ovozdan hosil bo‘lishi, unli tovushlar so‘z ma’nosini farqlashga xizmat qilishi haqida ma’lumot berish; b) tarbiyaviy maqsad: mashqdagi matn orqali o‘quvchilarni Vatanimiz poytaxt bilan tanishtirish, Vatanga mehr uyg‘otish; d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar lug‘atini tinchlik <i>qo‘rg‘oni</i> , <i>ozodlik kuyi</i> , <i>mehrning o‘chog‘i</i> so‘zlari bilan boyitish, mashqlarni ifodali o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish.
Kutilayotgan natija: Dars yakunida o‘quvchilar unli va undosh tovushlar, unli tovushlarning to‘siqqa uchramasligi, cho‘ziq aytilishi va ovozdan hosil bo‘lishi, unli tovushlar so‘z ma’nosini farqlashga xizmat qilishi haqida bilimlarga ega bo‘ladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Ishning nomi	Bajariladigan ish nomi	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	1. Salomlashish. 2. O‘quvchilar davomatini aniqlash. 3. Sinfning darsga tayyorligini tekshirish. 4. Darsning oltin qoidalari eslatib o‘tish. (1-ilova)	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzuni «Bilarjonni kim yengadi?» nomli ta’limiy o‘yin asosida mustahkamlash. (2-ilova) Uy vazifasi qilib berilgan 7-mashqni tekshirish. (3-ilova)	«Bilarjonni kim yengadi?» ta’limiy o‘yini	4 daqiqa
3-bosqich. Yangi mavzu bayoni	8-mashq matni asosida suhbat o‘tkazish. Lug‘at ustida ishlash. (4-ilova) Tovush turlari. Unli tovushlarning xususiyatlari haqida o‘qituvchining bayoni. (5-ilova)	Suhbat Analiz Suhbat Tushuntirish	8 daqiqa 2 daqiqa 2 daqiqa 6 daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash	Husnixat daqiqasini o‘tkazish. Multimedia ilova qilinadi. 9-mashq asosida «So‘z tuz» o‘yini o‘tkaziladi. Ta’limiy o‘yindan maqsad tovushlarning so‘z ma’nolarini farqlashga xizmat qilishini tushuntirish. (6-ilova, multimedia 1-ilova)	Husnixat mashqi, ta’limiy o‘yin	15 daqiqa
5-bosqich. Darsni yakunlash va baholash	O‘quvchilardan bugungi darsda nimalarni o‘rganganliklari so‘raladi. O‘quvchilarning dars davomida to‘plagan ballari e’lon qilinadi.	Suhbat	3 daqiqa
6-bosqich. Uyga vazifa	Uyga vazifa. 10-mashq. Tushuntirib beriladi.	Suhbat	3 daqiqa

Darsning borishi:

1-ilova.

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- o‘quvchilar davomatini aniqlash;
- sinfning darsga tayyorgarligini tekshirish;
- darsning oltin qoidalari eslatib o‘tish.

2-ilova.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash va uyga vazifani tekshirish.

«Bilarjonni kim yengadi?» ta’limiy o‘yini asosida o‘tilgan mavzuni mustahkamlab, so‘ng tekshiriladi.

Savollar slaydda ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi savolni o‘qishi bilan javob berishi, agar javob bera olmasa, boshqa o‘quvchi shu savolning javobini aytishi lozim bo‘ladi yoki ushbu «Bilarjonni kim yengadi?» ko‘rgazmasi cho‘ntaklariga savollarni yozib solib qo‘yishi, o‘quvchi ixtiyoriy savolni olib javob berishi mumkin.



Ko‘rgazmadagi savollar:

1. O‘zbek tilida nechta tovush bor?
– 30 ta.
2. Tovushlar yozuvda nimalar bilan ifodalanadi?
– *Harflar bilan.*
3. O‘zbek tilida nechta harf bor?
– 29 ta.
4. Tovushlar ko‘pmi yoki harflar? Nima uchun tovushlar ko‘p?
– *Tovushlar, sababi: j ikki xil talafuz qilinadi.*
5. Nimani talaffuz qilamiz va eshitamiz?
– *Tovushlarni.*


6. Nimani yozamiz, ko‘ramiz, o‘qiymiz?

– Harflarni.

Multimedia ilova.



Uy vazifasi qilib berilgan **7-mashq** multimedia 1-ilova asosida tekshiriladi. O‘quvchilarning mashq shartiga ko‘ra tuzgan so‘zlari o‘qitiladi.



Javoblar: *ota, ona, ana, aka, tok, non.*

– Tuzgan so‘zlaringiz bir-biridan nimasiga ko‘ra farq qilyapti?

– Harflarning joylashuviga ko‘ra farq qilyapti.



Husnixat daqiqasi: Multimedia ilova asosida bosh va kichik Ee harfi va harf unsurlarining yozilishi ko‘rsatiladi. Gap yozishda harflarning bog‘lanishi tushuntiriladi:

Ee, Ee, Ee, Ee.

Elyor ertak o‘qidi.

III. Yangi mavzu bayoni. 4-ilova.



8-mashq multimedia 2-ilova asosida tushuntiriladi. Ilovada she‘r muallifi tanishtirilib, she‘r matni o‘qib eshittiriladi:

*Poytaxt shahar, bosh shahar,
Qadim tuproq, Shosh shahar...
Sen tinchlik qo‘ng‘irog‘i,
Sen ozodlik kuyisan.
Sen mehrning o‘chog‘i,
Sen oftobning uyisan.*

Muhammad Yusuf

Videorolik namoyishida Toshkentning avvalgi va hozirgi ko‘rinishi tasvirlanadi. She’rning dastlabki ikki qatori ko‘chirilib, unlilar tagiga chizish kerakligi aytiladi. She’r matni yuzasidan quyidagicha suhbat o‘tkaziladi:

- She’r sizga yoqdimi?
- ...
- She’r nima haqida ekan?
- *Toshkent shahri haqida ekan.*
- She’rning muallifi kim?
- *Muhammad Yusuf.*
- Siz avval Muhammad Yusufning qaysi she’rini o‘qigan edingiz?
- *«Ona tilim» she’rini.*
- Nima uchun she’rda Toshkentni bosh shahar deyilgan?
- *Poytaxt bo‘lgani uchun.*
- O‘zbekistonning poytaxti qayer?
- *Toshkent shahri.*

Lug‘at ustida ishlash:

Qadim tuproq, Shosh shahar, tinchlik qo‘rg‘oni, ozodlik kuyi, mehrning o‘chog‘i, oftobning uyi so‘z birikmalarinig ma‘nolari tahlil qilinadi.

5-ilova.

1. Poytaxt so‘zida nechta tovush bor? (7 ta.)
2. Tovushlarni nima qildingiz? (*Talaffuz qildik.*)
3. Harflarni-chi? (*Yozdik.*)
4. Tovushlar necha turga bo‘linadi? (2 turga: *unli va undosh.*)
5. Poytaxt so‘zidagi unli harflarning tagiga bitta chiziq chizing.
6. Poytaxt – nima uchun bu tovushlar unli tovush deyiladi?
7. So‘zdagi undosh tovushlarini aniqlang.
8. Nima uchun bu tovushlar unli tovushlardan farqlanadi?

O‘quvchilarning savollarga bergan javoblari umumlashtirish jarayonida to‘ldiriladi.

**Unli tovushlar to‘siqqa uchramagani uchun ovozdan hosil bo‘ladi.
Undoshlar to‘siqqa uchraydi. To‘siq bor joyda shovqin yuzaga keladi.
Shuning uchun tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra unli va undosh tovushlarga bo‘linadi.**



Dam olish daqiqasi.

IV. Mustahkamlash.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash **9-mashq** asosida amalga oshiriladi. Katakchalardagi harflardan foydalanib so‘zlar tuzish kerakligi aytiladi.

Javobdagi so‘zlar: *kuz, kun, tun, tuz, kut, tuk.*



Multimedia ilova asosida ham quyidagicha amalga oshirish mumkin.

k		n
	u	
t		z

Quyidagi topshiriqlar asosida mashq bajariladi:

1. Katakchadagi harflardan foydalanib so‘zlar tuzing.
2. Tuzgan so‘zlaringizni daftarga yozing.
3. Unlilarni o‘zgartirib yangi so‘z tuza olasizmi?

V. Darsga yakun yasash va baholash.

O‘quvchilar darsdagi ishtirohiga ko‘ra baholanadilar.

IV. Uyga vazifa. Uyga vazifa qilib **10-mashq**ni bajarib kelish topshiriladi. Avval unlilar topiladi, uchinchi va to‘rtinchi gap ko‘chiriladi, tekshiriladi. Unlilarning tagiga chiziladi.



6-d a r s

MAVZU: I VA U UNLILARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: unli tovushlar va unli harflar haqidagi bilimlarni aniqlash, i va u unllarining so'z tarkibida to'g'ri talaffuzi va imlosini o'rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning qushlarga, tabiatga bo'lgan mehr-larini oshirish, qushlar bizning do'stimiz ekanligi, tabiat sanitarlarining atrof-olamga foydasi katta ekanligi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar so'z boyligini oshirish, xoti-rani charxlash, husnixat asosida imlo xatolarsiz yozishga o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi dars.

Dars jihozi: mavzuga oid plakatlar, qushlar rasmi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish;
- navbatchi axborotini tinglash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

13-mashq nuqtalar o'rniga *a* unlisi qo'yib o'qitiladi va yozdiriladi, so'ng tekshiriladi:

o'ralgan, havosi musaffo, shamoli, tomosha.

«**Teskari test**» mashqi o'tkaziladi. Monitor orqali savol va javoblar namoyish etiladi. O'quvchilar noto'g'ri javobni belgilaydilar. So'ng monitorda to'g'ri javoblar ko'rsatiladi. Har bir to'g'ri javob uchun bir balldan beriladi. Jami 5 ball to'plagan o'quvchi rag'batlantiriladi. Ushbu «**Teskari test**» tarqatma topshiriq tarzida ham bajarilishi mumkin.

Teskari test topshiriq'i

1. Tovushlarni nima qilamiz?

A) Talaffuz qilamiz va eshitamiz

*B) O'qiymiz va yozamiz

2. O'zbek tilida nechta tovush bor?

*A) 29 ta

B) 30 ta

3. Harflarni nima qilamiz?

- A) Yozamiz, ko‘ramiz, o‘qiymiz
*B) Talaffuz qilamiz va eshitamiz

4. O‘zbek tilida nechta unli harf bor?

- *A) 23 ta
B) 6 ta.

5. Chumchuq so‘zida nechta unli tovush bor?

- A) 2 ta
*B) 4 ta



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida bosh va kichik *Ff* harfi va harf unsurlarining yozilishi ko‘rsatiladi. Gap yozishda harflarning bog‘lanishi tushuntiriladi:

Ff, Ff, Ff.

Farg‘ona go‘zal shahar.

III. Yangi mavzu bayoni.

14-mashqda tez aytishni o‘qituvchi bir necha marotaba o‘qiydi, so‘ng o‘quvchilarga aytiladi.

1. *Chumchuq chug‘urchiqni cho‘qimasa,*

Chug‘urchiq chumchuqni cho‘qimaydi.

2. *Tursunda to‘rtta to‘r qop bor.*

Chumchiq aytiladi, *chumchuq* yoziladi.

Chug‘urchiq aytiladi, *chug‘urchiq* yoziladi.

Tursin aytiladi, *Tursun* yoziladi.

Ko‘chirib *u* unlisi *i* tarzida aytiladigan so‘zlarning tagiga chiziladi. O‘quvchilardan unlarning qaysi bo‘g‘inida xato qilish mumkinligi so‘ralib, unli tovushlarni ifodalovchi *a, e, o, i, u, o‘* unli harflari daftarga yozdiriladi. O‘quvchilarning yozganlari darslikdan tekshiriladi.



Dam olish daqiqasi.

IV. Mustahkamlash.

Darslikdagi 15-mashq asosida o‘tilgan mavzu mustahkamlandi. Rasmdagi qushlar nomi aytiladi. Aytilishida *u* unlisi, yozilishida *i* unlisi ekanligi uqtililadi.

Aytilishi	Yozilishi
chumchiq	chumchuq
boyqish	boyqush
bulbil	bulbul
qirg‘ovil	qirg‘ovul
burgit	burgut

Qushlar nomi ko‘chirib yoziladi va *u* unlisi tagiga chiziladi.



«**Tanla va javob ber**» ta’limiy o‘yini orqali o‘quvchi o‘zi xohlagan raqamni tanlab, uning orqasida yashiringan savolga javob berishi lozim. So‘ng o‘quvchilar qushlar nomi ishtirok etgan so‘zlardan gap tuzishadi.

O‘quvchilar javobi tinglanadi va rag‘batlantiriladi.

Raqamlar ortiga yashiringan savollar

1	2	3	4	5
Chumchuq	Boyqush	Bulbul	Qirg‘ovul	Burgut

1. Ikkita ch harf birikmasi ishtirok etgan qushning nomi nima?

(Chumchuq)

2. Ukki qushiga o‘xshagan qushning nomi nima?

(Boyqush)

1. Yoqimli sayroqi qushning nomi nima?

(Bulbul)

2. Bu qush nomida *qir* va *ovul* so‘zlari mavjud. Qush nomini toping.

(Qirg‘ovul)

3. Eng mag‘rur va tumshug‘i egri qushning nomi nima?

(Burgut)

O‘qituvchi so‘zi:

– Qushlar tabiatda katta ahamiyatga ega. Ularsiz hasharotlar dala va bog‘larda yetishtiriladigan o‘simliklarga juda katta zarar keltiradi. Ba’zi hasharotlar daraxtlar po‘stlog‘ini batamom yeb tugatadi. Daraxtlarning o‘zi esa qurib qoladi. Kasalliklar ham ko‘payib ketadi. Burgut va boyqush kemiruvchilar

va o'lgan hayvonlar bilan oziqlanib, tabiatga katta foyda keltiradi. Qushlar bizning do'stimiz, ularni biz bejizga tabiat sanitarlari deb atamaymiz. Ularning atrof-olamga foydasi katta. Shuning uchun qushlarni muhofaza qilishimiz va asrashimiz zarur.

V. Darsga yakun yasash.

Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirilib, o'quvchilar bilimi baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyga vazifa qilib **16-mashq** matnidagi nuqtalar o'rniga mos unlini qo'yib, she'rni ko'chirish topshirig'i beriladi.



9 - d a r s

MAVZU: UNLI TOVUSHLAR VA HARFLARNI MUSTAHKAMLASH

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: unli tovushlar va unli harflar haqidagi bilimlarini aniqlash, u va i unllilarining so'z tarkibida to'g'ri talaffuzini va imlosini o'rgatish, o'quvchilarning unli tovushlar va undosh harflar haqidagi bilimlarini, u va i unllilarining to'g'ri talaffuzi va yozilishini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: bolalarni tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish, uy hayvonlariga g'amxo'rlik qilishga undash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, uni sevish va qadrlashga o'rgatish.

Dars turi: umumlashtiruvchi dars.

Dars metodi: rasmi diktant, «Ha, yo'q» ta'limiy o'yini.

Dars jihozi: kesma harf, test topshiriqlari, «Boshqotirma».

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchining axborotini tinglash;
- sinf tozaligini ko'zdan kechirish;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O‘tgan mavzuni so‘rash va baholash.

19-mashq. «O‘yla, izla, top» ta’limiy o‘yini asosida tashkil etiladi.

O‘yin quyidagicha tashkil etiladi: O‘quvchilar qo‘liga hayvonlar rasmi yoki nomi yozilga tarqatma kartochkalar beriladi. Kartochka olgan o‘quvchi qo‘lidagini hech kimga ko‘rsatmay, doskaga chiqib, hayvonlar xatti-harakatiga o‘xshatib ko‘rsatib beradi. Qolgan o‘quvchilar qaysi hayvon ovozi ekanini topadi, so‘ng rasmi ko‘rsatilib, tog‘riligi tasdiqlanadi. Topgan o‘quvchi doskaga hayvon nomini yozadi.

N a m u n a :

Yo‘lbars, maymun, tulki, sher, kiyik, bo‘ri.

Qolgan o‘quvchilar daftarlaridagi uy ishlarini doskadan tekshiradi.



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida bosh va kichik Ii harfi va harf unsurlarining yozilishi ko‘rsatiladi. Gap yozishda harflarinh bog‘lanishi tushuntiriladi:

Ii, Ii, Ii.

Ish ishtaha ochar.

III. Mustahkamlash.

20-mashq. O‘quvchilar **Aa, Oo, O‘o‘, Uu, Ii, Ee** harflarini yozma shaklda husnixat bilan yozadilar. Bosma va yozma harflarning farqlari o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Rasmi diktant

Doskada uzum, olxo‘ri, anjir, etik, ilon, o‘rdak rasmlari ko‘rsatiladi. (O‘qituvchi berilgan rasmlar o‘rniga ixtiyoriy rasmlar tanlashi mumkin). O‘quvchilar rasmdagi narsalar nomini tartib bilan yozadilar va yozgan so‘zlaridagi unlilar-ning tagiga tegishlicha chizadilar. O‘qituvchi, o‘quvchilar o‘zlarini tekshirishlari uchun doskaga avvaldan yozib qo‘yilgan yuqoridagi so‘zlarni ko‘rsatadi.

Imlo xatosiz yozgan o‘quvchilar rag‘batlantirilib, namuna sifatida ko‘rsatiladi.

21-mashq. Kitobda berilgan maqollar o‘quvchilarga o‘qitiladi, mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

1. *Bilim – davlatdan qimmat.*
2. *Olim bo‘lsang, olam seniki.*

O‘qituvchi: Davlat, ya’ni boylik, pul sarflangani sayin tugashi mumkin, bilim esa o‘qigan sari ko‘payadi. Bilim – davlatni, ya’ni boylikni ham ko‘paytiradi. Olim odam bilimli, aqlli bo‘ladi. Uning ilmi kuchli bo‘lsa, uni butun dunyo taniydi (maqol izohlab tushuntiriladi).

O‘quvchilar yozishda xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan so‘zlar imlosi ko‘rsatiladi.

Masalan:

Xato	To‘g‘ri
<i>bilm</i>	<i>bilim</i>
<i>olm</i>	<i>olim</i>
<i>qimat</i>	<i>qimmat</i>
<i>davlad</i>	<i>davlat</i>

Xato qilmaslik uchun maqollarning yozilishiga e‘tibor qaratish va bir necha marotaba o‘qish kerakligi aytib o‘tiladi. Unli tovushni ifodalovchi harflar tagiga chiziladi.

O‘qituvchi ushbu maqollardagi so‘zlarda qaysi unli ishtirok etmaganligini so‘raydi. O‘quvchilar *u* unlisi ishtirok etmaganligini aytadilar. *Bilim, davlat* so‘zlariga ma’nodosh so‘zlar toptiriladi.

Javob:

bilim – ilm

davlat – boylik

Davlat so‘zi uch xil ma’noni anglatishi aytib o‘tiladi:

davlat – boylik,

davlat – mamlakat,

davlat – odamning ismi.



Dam olish daqiqasi.

Boshqotirma. Buning uchun o‘quvchilar quyidagi mevalar nomini shunday joylashtirishlari kerakki, natijada OFARIN so‘zi hosil bo‘lsin.

Ko‘k rangdagi katakchalarga tushib qolgan unli tovushlarni yozib, mevalar nomini ayting va sariq rangli katakdagi yashiringan so‘zni toping.

			o	l	m	a		
	sh	a	f	t	o	l	i	
o	l	ch	a					
a	n	o	r					
	o'	r	i	k				
	b	a	n	a	n			

Foydalanish uchun soʻzlar yoki rasmlar: *olcha, shaftoli, olma, anor, oʻrik, nok.*

«Ha – yoʻq» taʼlimiy oʻyini oʻtkaziladi. Buning uchun oʻqituvchi savolni oʻqiydi, oʻquvchilar «ha» yoki «yoʻq» deb javob beradilar.

1. Oʻzbek tilida 5 ta unli tovush bor. **(Yoʻq)**
2. *A, o, oʻ, u, i, e* – bular undosh tovushlar. **(Yoʻq)**
3. Oʻzbek tilida 6 ta unli tovush bor. **(Ha)**
4. Tovushlarni oʻqiymiz va yozamiz. **(Yoʻq)**
5. Tovushlarni eshitamiz va talaffuz qilamiz. **(Ha)**

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi va baholanadi.

V. Uyga vazifa berish.

22-mashq. Oʻquvchilar katakchalardan foydalanib soʻzlar tuzib va daftarlariga yozib kelishlari aytiladi.

t		n
	i	
q		sh

N a m u n a :

Tish, qish, nish, tin, tiq.



MAVZU: UNDOSH TOVUSHLAR VA HARFLAR

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning undosh tovushlar va undosh harflar haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash, undoshlarni so'z tarkibida aniqlashga o'rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarga tabiat ne'matlarining foydasi haqida elementar tushuncha berish, ularni asrashga va parvarish qilishga odatlantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: bolalarni topqirlikka o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikmalarni mustahkamlovchi dars.

Dars metodi: suhbat, analiz-sintez, ta'limiy o'yin.

Dars jihozi: multimedia ilovalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchining axborotini tinglash;
- sinf tozaligini ko'zdan kechirish;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O'tilgan darsni so'rab baholash.

Tovushlar haqida suhbat tashkil qilinadi:

1. Nutqimizdagi tovushlar necha turga ajratiladi?
2. Unli va undosh tovushlar qanday farqlanadi?
3. Undosh tovushlarga qaysi tovushlar kiradi?

Uyda bajarish uchun berilgan mashq sharti asosida tekshiriladi. Tuzgan so'zlari bir-biridan nimasiga ko'ra farqlanishi so'raladi.



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida bosh va kichik Hh harfi va harf unsurlarining yozilishi ko'rsatiladi. Gap yozishda harflarning bog'lanishi tushuntiriladi:

Hh, Hh, Hh.

Hunar, hunardan rizqing unar.

III. Mustahkamlash.

23-mashq. Multimedia ilova asosida «Yong'oq» she'ri topishmoq tarzida o'qib eshittiriladi.

Ektranda she'r matni yonida yong'oq, sariyog', olma va behi rasmlari ko'rsatiladi. O'quvchi topishmoqning javobini topsa, «Barakalla» so'zi eshilib, yong'oq so'zi she'r sarlavhasi o'rniga o'tadi.

O'quvchilarga she'rni daftarlariga ko'chirish hamda she'rdagi undoshlar tagiga chizish topshirig'i beriladi, o'quvchilar topshiriqni mustaqil bajaradilar. She'r matnida nechta undosh borligi va qaysi undoshlar qatnashmaganligi aniqlatiladi (15 xil undosh qatnashdi, 9 xil undosh qatnashmadi). Quyidagi savollar yordamida o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi:

– Undosh tovushlar qanday talaffuz qilinadi? Nima uchun?

– Undosh tovushlar tarkibida nima ishtirok etadi?

Multimedia ilova asosida darslikdagi **24-mashq** bajariladi.

Sabzavot rasmlari namoyish etiladi, o'quvchilar sabzavot nomlarini aytadilar, talaffuzda va yozuvda farqlanadigan so'zlar tahlil qilinadi.

Bu mashqni darslikda berilgan rasmlar asosida, rasmi diktant tarzida ham o'tkazish mumkin.

«So'z tuz» ta'limiy o'yini. Ushbu ta'limiy o'yinni o'tkazish orqali o'quvchilarning fikrlash doiralari kengayadi, og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi.

Ish, tosh so'zlaridagi *sh, t* undoshlarini boshqa undosh tovushlarga almashtirib, yangi so'z tuzdiriladi. Masalan: *osh, bosh, qosh*.

O'quvchilarga undoshlarning o'zgarishi so'z ma'nosini o'zgartirishi xususida savol beriladi:

– Qaysi undosh so'z ma'nosini o'zgarishiga xizmat qildi? (**t, sh**)

– So'zdagi tovushlar so'z ma'nosini o'zgartirishi mumkinmi? (**Ha**)



Dam olish daqiqasi.

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uy bajarish uchun ajratilgan **25-mashq** sharti multimedia 3-ilova asosida sharti bilan tanishtiriladi.

O'zi ekin, gul taqar,

Pishgach, yesang, xo'p yoqar.

Kun doim unga boqar,

U doim kunga boqar.

(Kungaboqar)

Topishmoqning javobini topish, topishmoq matnidagi undosh tovushlarni aniqlash, harf birikmalarining tagiga chizish topshirig'i uyga vazifa sifatida beriladi. Kungaboqar so'zi ikki so'zdan iborat ekanligi, so'zlar qo'shib yozilishi suhbat asosida tushuntiriladi.

O'quvchilarga yaxshi kayfiyat tilab, darsga yakun yasaladi.



13 - dars

MAVZU: J HARFI VA J TOVUSHLI SO'ZLAR (32–33-MASHQLAR)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: *j* harfli so'zlarda *j* tovushining to'g'ri talaffuzini o'rgatish, *j* harfi ikki xil tovush ifodalashini, shunga ko'ra tovushlar harflarga nisbatan ko'pligini aytish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni Vatanga, ona yurtga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni qayta hikoyalash va ijodiy fikrlashga o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, «Ortiqchasini top» ta'limiy o'yini.

Dars jihozi: mazmunli rasm, *j* harfli so'zlar ishtirok etgan rasmlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchining axborotini tinglash;
- sinf tozaligini nazorat qilish;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O'tilgan mavzuni so'rab baholash.



Uy vazifasini tekshirish uchun ekranda devorga ilingan pochta qutisi rasmi, stol ustidagi konvertlarda so'zlar yozilgan bo'ladi. So'zlardagi *x* yoki *h* harflari o'rnida nuqta yozilgan. O'quvchi konvertdagi so'zni *x* yoki *h* harfiga mos pochta qutisiga soladi. Agar so'z to'g'ri topilsa, konvert-

dagi soʻzda *x* yoki *h* harfi paydo boʻladi. Aksi boʻlsa, konvert joyiga qaytadi va «notoʻgʻri» degan ovoz eshitiladi.

X harfi	H harfi
yaxmalak	holva
xona	baho
xola	jahon
taxta	havo
xirmon	
mix	

Конвертлардаги сўзлар: *Ya.malak, .ona, .ola, ta.ta, .irmon, mi., .olva, ba.o, ja.on, .avo*

Assalomu alaykum soʻzining maʼnosi, kimlarga oldin salom berishi soʻraladi.



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida bosh va kichik Jj harfi va harf unsurlarining yozilishi koʻrsatiladi. Gap yozishda harflarning bogʻlanishi tushuntiriladi:

Jj, Jj, Jj.

Jamshid jumboqni yechdi.

Lugʻat diktant

Xorazm, Jizzax, Buxoro, mix, handalak.

III. Yangi mavzu bayoni.

Doskaga J harfi mavzusi va j harfi ishtirok etgan soʻzlar ikki ustun shaklida yozib qoʻyiladi.

Oʻquvchilarga oʻqitiladi:

joʻja	jurnal
jahon	jirafa
jizza	jiyda

- 1-ustundagi soʻzlarda birinchi qaysi tovush ishtirok etgan? (*j tovushi*)
- 2-ustundagi soʻzlarda birinchi qaysi tovush ishtirok etgan? (*j tovushi*)
3. Qaysi harf ikki tovushni ifodalayapti? (*j tovushi*)

Ushbu savollar orqali *j* tovushi ikki tovushni bildirishi aytiladi. So‘ng o‘quvchilar daftarlariga husnixat asosida yozadilar va yozgan so‘zlarida ishtirok etgan *j* harfining tagiga chizadilar.

32-mashq. Bu mashq multimedia ilova asosida amalga oshiriladi yoki quyidagi usuldan foydalanish mumkin.

«Ona tabiat» mavzusida hikoya tuzish. O‘quvchilarga rasmni kuzatish va rasmdagi predmetlar nomini aytish topshirig‘i beriladi.

Ular *jilg‘a, jiyda, jayron, jar, jala* kabi **j** tovushli va harfli so‘zlar aytadilar. O‘qituvchi rasm yuzasidan tayyorlagan savollari orqali uning mazmunini hikoya qildiradi, hikoyada bolalarning rasmdagi kichik detallarga ham ahamiyat berishlariga e‘tibor qaratish lozim. Savollar va ularning javoblari taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Rasmda qayer tasvirlangan?

(Rasmda o‘rmondagi jar yoqasi tasvirlangan.)

2. Tabiatning ko‘rinishi sizga yoqdimi? Nima uchun yoqdi?

(Tabiatning ko‘rinishi yoqdi, hamma yoq yam-yashil.)

3. Tabiat bizga nima beradi?

(Tabiat bizga hamma narsani beradi, suv, ovqat, kiyim-kechak.)

4. Siz ham shunday joylarda bo‘lganmisiz?

...

5. Kim shu rasimga qarab hikoya tuza oladi?

...

Shundan so‘ng darslikdagi savollarga javob olinadi.

Rasmda ona tabiat tasvirlangan. Havo ochiq. Kun issiq. Yoqimli shabada esmoqda. Jilg‘a yoqasida jiyda daraxti o‘sib turibdi. Jar yon bag‘rida jayron o‘tlayapti.

Har bir tuzilgan gap doskaga yozib boriladi. O‘quvchilar daftarlariga yozadilar, *j* harfining tagiga chizadilar, bu tovushi ikki xil tovushni ifodalashini aytadilar.

O‘quvchilar bilan quyidagicha suhbat o‘tkaziladi:

– Siz nima yozdingiz?

– *Gaplar yozdik.*

– Nechta gap yozdingiz?

– *Beshta.*

– Bu gaplaringiz mazmuni biri-biri bilan bog‘liqmi?

– *Gaplarning mazmuni bir-biri bilan bog‘liq.*

– Ular jamlanib nimani hosil qiladi?

- *Matn yoki hikoyani.*
- Rasm asosida nima tuzdingiz?
- *Hikoya tuzdik.*
- Hikoyada nechta gap bor?
- ...
- Hikoya nimalardan tuziladi?
- *Gaplardan.*
- J harfi nechta tovushni ifodalaydi?
- *Ikkita tovushni ifodalaydi.*
- J tovushi ishtirok etgan soʻzlar ayting.
- *Jiyda, jilgʻa, joʻra.*
- J tovushi ishtirok etgan soʻzlardan ayting
- *Jurnal, ajdar.*

IV. Mustahkamlash.

«**Ortiqchasini top!**» taʼlimiy oʻyini. Bunda oʻquvchi j harfi ishtirok etmagan soʻzlarni aniqlab, ortiqcha soʻz ekanligini topadi va soʻz ustiga bir chiziq chizib qoʻyadi.

jilgʻa	maysa	jar
tosh	Ortiqchasini top!	jirafa
jayra	jayron	osmon

33-mashq sharti bilan tanishtiriladi. Soʻzlarni oʻqib, j harfining oʻqilishiga eʼtibor qaratish, soʻng koʻchirib, j harfining tagiga chizish aytiladi.

Jamol, Jurʼat, jiyda, ajdar, ijozat, ijro, jibljibon.

Ajdar – j harfi j tovushi ifodalayapti.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Darsda faol ishtirok etgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

34-mashq sharti oʻqib eshitiriladi. Bolalarga j tovushi qatnashgan ism qoʻyib, savollarga javob yozib kelish tushuntiriladi.

MAVZU: HARF BIRIKMALARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: harf va harf birikmasini farqlashni, harf birikmasini hosil qilgan shakllar bir-biridan ajratilmasligini, bir tovush sifatida talaffuz qilinishini o'rgatish, so'zlarni grafik va imloviy to'g'ri yozish malakasini shakllantirish.

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni o'rtoqlik, do'stlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: qayta hikoyalash va ijodiy fikrlashga o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi takrorlash darsi.

Dars metodi: suhbat, analiz-sintez, tushuntirish, ta'limiy o'yin.

Jihozlar: multimedia ilovalar, rasmlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchi axborotini tinglash;
- sinf tozaligini nazorat qilish, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

II. O'tilgan darsni so'rab baholash.

Dars uyga vazifani og'zaki o'qitish va j harfi ifodalaydigan tovushlar yuzasidan o'quvchilar bilimni aniqlashdan boshlanadi, so'ng 34-mashq tekshiriladi.

Lug'at diktant

O'quvchilarga quyidagi so'zlarni eshitish orqali j tovushli (jo'ja)larni bir ustunga, j tovushli (jurnal)larni 2-ustunga yozish topshirig'i beriladi: *joy, jiyda, jirafa, jurnal, jahon, jo'ja, jajji, ajdar.*

1-ustun

joy
jiyda
jahon
jayron

2-ustun

jurnal
jirafa
ajdod
ajdar

Kitob bilan ishlash (34-mashq)dagi rasm asosida savol-javob o‘tkaziladi).

1. Kimlar jurnal o‘qiyapti?
2. Jurnalda nima tasvirlangan?

Doskaga o‘qituvchi tomonidan yozib qo‘yilgan *jajji, jurnal* so‘zlari ustida lug‘at ishi o‘tkaziladi.

Lugat ishi:

jajji – kichkina, mitti

jurnal – oynoma

O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolar tahlil qilinadi.

Masalan: *jajji* so‘zini bitta j bilan yozgan bo‘lsalar, shu so‘z bo‘g‘inga bo‘linadi: *jaj-ji*. 1-bo‘g‘in doskaga yozdiriladi, so‘ng 2-bo‘g‘in og‘zaki aytiriladi va 1-bo‘g‘inga qo‘shib yozdiriladi.

Jaj-ji so‘zida nechta tovush va nechta harf borligi so‘raladi va shu so‘zning qayerida xato qilish mumkinligi o‘quvchilarning o‘zlariga toptiriladi.



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida bosh va kichik Sh, Ch, ng harfi va harf unsurlarining yozilishi ko‘rsatiladi. Gap yozishda harflarning bog‘lanishi tushuntiriladi:

Sh, sh, Ch, ch, ng.

Shirin so‘yla, do‘sting ko‘p bo‘ladi.

III. Yangi mavzu bayoni.



Buyuk bobokalonimiz A. Navoiyning tug‘ilgan kuni munosabati bilan uning portreti, kitoblari ko‘rsatiladi. «**So‘zni top**» ta’limiy o‘yini orqali A. Navoiyning hikmatli so‘zlari yodga olinadi. Buning uchun hikmatli so‘zlardagi bir so‘z tushirib qoldiriladi va o‘quvchi tushib qolgan so‘zni topadi. Dars multimedia ilova asosida tashkil etiladi.

Oz-oz o‘rganib _____ bo‘lur,

Qatra-qatra yig‘ilib _____ bo‘lur.

Bilmaganin so‘rab o‘rgangan _____,

Orlanib so‘ramagan o‘ziga _____.

Tilga e‘tiborsiz – _____ e‘tiborsiz.

Foydalanish uchun so‘zlar: *dono, daryo, olim, zolim, elga.*

O‘quvchilar bergan javoblari tinglanib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bartaraf etiladi.

Darslik bilan ishlash.

35-mashqdagi she‘r ifodali o‘qitiladi. She‘r nima haqida ekanligi so‘ralib, harf birikmalarini topib, tagiga chizish aytiladi. She‘r yoddan husnixat asosida yozdiriladi.

– *Shamol, qayga chopyapsan,
Seni quvlarmi birov?*
– *Axir, qancha ishim bor,
Bo‘lmas bormasam darrov.*

Rauf Tolib

O‘qituvchi quyidagi savol orqali harf birikmasi ishtirok etgan so‘zlarni aniqlaydi:

– Qaysi so‘zda harf birikmasi bor ekan? (*shamol, chopyapsan, ishim.*)

Shamol so‘zi ustida tovush-harf tahlili o‘tkaziladi.

Shamol to‘rtta harf, bitta harf birikmasi, ikkita unli, uchta undosh harf bor.

36-mashq multimedia ilova asosida tashkil etiladi.

G‘oz va o‘rdak ko‘lmak yonida uchrashib qolishdi.

G‘oz:

– Sen qayerda yashaysan?

O‘rdak:

– Men xonaki parrandaman, suvda va quruqlikda yashayman. Sen-chi?

G‘oz:

– Qiziq, men ham xuddi shu joylarda yashayman. Qanotlaring, panjalaring, tumshug‘ing ham menikiga o‘xshash ekan. Isming nima?

O‘rdak:

– Men o‘rdakman. Seniki-chi?

G‘oz:

– Men g‘ozman.

O‘rdak:

– Kel, do‘stlashamiz!

G‘oz:

– Albatta, biz ajralmas do‘st bo‘lamiz!

Bilarjon chiqib keladi:

– Voy, g‘oz, o‘rdak, sizlarning do‘stligingizni men mana bu harflarga o‘xshatdim. – Sh, ch, ng harf birikmalari ko‘rsatiladi. – Mana bu harf birikmalari ham hech qachon ajralmaydi.

G‘oz:

– Kel, shu harf birikmalariga o‘xshab biz ham hech qachon ajralmaymiz.

O‘rdak:

– Bizni ko‘rganda, bolalar, mana shu harf birikmalarni eslang!

36-mashq o‘quvchilarga ifodali o‘qitiladi.

Mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar ***uchrashdilar, isming, seniki-chi, topishdi, chopishdi*** so‘zlarini daftariga ko‘chirib olishadi.

So‘z bo‘g‘inlarga bo‘lib doskaga yozdiriladi:

Uch-rash-di-lar, is-ming, se-ni-ki-chi, to-pish-di, cho-pish-di.

O‘quvchilar ch va sh harf birikmalaridagi **c** va **h**, **s** va **h** larning bir-biridan ajralmaganini ko‘radi. Bu ishlar o‘quvchini to‘g‘ri bo‘g‘in ko‘chirishni o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Keyingi so‘zlardagi harf birikmalari tagiga chizdiriladi va o‘zbek alifbosida uchta harf birikmasi borligi (ch, sh, ng) haqida xulosa chiqariladi hamda bu harf birikmalari qo‘shib yozilishi aytiladi.



Dam olish daqiqasi.

IV. Darsda o‘rganilganlarni mustahkamlash.

«**Raqamli joylashuv**» ta’limiy o‘yini o‘tkaziladi.

Buning uchun 9 ta katakdan iborat jadvalga turli so‘zlar yoziladi va katakning bir chetiga 1 dan 9 gacha bo‘lgan sonlar yozib qo‘yilgan bo‘ladi. O‘quvchining vazifasi ushbu ch, sh, hg harf birikmasi bor so‘zlarning raqamini aniqlash ekanligi aytiladi.

Masalan:

1 sayohat	2 chiroyli	3 o‘ynadi
4 tomosha	5 o‘rdak	6 bodring
7 qaymoq	8 shahar	9 tuxum

O‘quvchilar 2, 4, 6, 8 raqamlarida berilgan so‘zlarda harf birikmalari ishtirok etganligini topishadi. Chunki ushbu raqamlarda quyidagi so‘zlar joylashgan:

2 – *chiroyli*

4 – *tomosha*

6 – *bodring*

8 – *shahar*

Ushbu so‘zlardan foydalanib gaplar tuzdiriladi. Eng mazmunli gap daftarga yozdiriladi.

N a m u n a :

Toshkent – chiroyli shahar.

V. Darsni yakunlash va baholash.

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra rag‘batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyda **37-mashq**ni bajarib kelish topshirig‘i beriladi.

Harf birikmasining tagiga chizish, matnning nima haqida ekanligini, *Shahrisabz* nechta so‘zdan tuzilganligini, qanday ma’no bildirishini, matndagi qaysi so‘zlarda imlo xatoga yo‘l qo‘yish mumkinligini bilib kelish topshirig‘i beriladi.



18 - d a r s

MAVZU: AYILISHI VA YOZILISHIDA FARQLANUVCHI UNDOHLAR

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga so‘zning talaffuzi va yozilishini o‘rgatish, ularning imlosini o‘zlashtirishga erishish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni kitobga mehr-muhabbat, tabiatni se-vish ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash darsi.

Dars metodi: savol-javob, analiz-sintez, tushuntirish, ta’limiy o‘yin, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: darslik, tarqatmali topshiriqlar.

Texnik vosita: proektor, kompyuter.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

1. Diqqatni jamlash mashqini bajarish. Buning uchun o‘qituvchi 2 satrli she’r aytadi:

Tinchlikni biz saqlaymiz, (1-qatorni o‘qituvchi aytadi)

Bilim olishni xohlaymiz. (2-qatorni o‘quvchilar aytadilar)

2. O‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilash va darsning «**Do‘stona kelishuv**» qoidalarini eslatib o‘tish.

3. O‘quvchilarni guruhlarga ajratishni tashkil qilish.

Sinfdagi partalar talab darajasida joylashtiriladi. Sinf o‘quvchilari quyidagi tarzda guruhlarga ajratiladi: O‘quvchilar ovozsiz, harakat yordamida 4 yoki 5 guruhga bo‘linadi. Buning uchun o‘quvchilar o‘qituvchi stolidagi teskari qilib qo‘yilgan tarqatma kartochkalarni tanlab, yozuviga qarab joylashadilar va ko‘krak nishonini ko‘kraklariga yopishtirib oladilar. Kartochkalarda guruh nomlari yozilgan atamalar bo‘ladi:

1-guruh: «Quvnoqlar».

2-guruh: «Zukkolar».

3-guruh: «Bilimdonlar».

4-guruh: «Shodonlar».

5-guruh: «Donolar».

4. Dars davomida har bir to‘g‘ri javob uchun o‘quvchilar ishtirokiga qarab baholanishi va dars so‘ngida «**Bugungi darsning eng faol o‘quvchisi**», «**Bugungi darsning eng tirishqoq o‘quvchisi**», «**Bugungi darsning eng intiluvchan o‘quvchisi**» nominatsiyalari bilan dars yakunida taqdirlanishi aytib o‘tiladi.



II. Uy vazifalarini tekshirish va o‘tilgan mavzularni takrorlash.

Uyga berilgan vazifa **46-mashq** og‘zaki o‘qitish orqali tekshiriladi. Nuqtalar o‘rniga qo‘yilgan undoshlarning to‘g‘riligini aniqlash uchun so‘z oxiriga a va i unlisi qo‘shib talaffuz qilinadi. Masalan:

1. *Kitob+i, oftob+i, savob+i, javob+i, janub+i.*

2. *Ozod+a, obod+i, avlod+i, ajdod+i.*



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida Rr bosh va kichik harf unsurlarining yozilishi ko‘rsatiladi. Gap yozishda harflarning bog‘lanishi tushuntiriladi:

Rr; Rr; Rr.

Raim marraga birinchi keldi.

III. Mustahkamlash.

1-topshiriq 47-mashq asosida amalga oshiriladi.

«**Kim topag‘on?**» ta‘limiy o‘yini multimedia ilova asosida yoki organayzer usulida tashkil etiladi.

A3 formatda jadval asosida quyidagi tarqatmali topshiriq beriladi. Bu o‘yinda o‘quvchilar so‘zlar qatoriga qaysi undosh mos kelsa, shu undoshga qo‘shuv (+) belgisi qo‘yadi. So‘ng o‘quvchilar javoblari tekshiriladi. To‘g‘ri bajargan guruhlar rag‘bat kartochkasiga ega bo‘lishadi.

So‘zlar	b	p	d	t	g	k	z	s	Javoblar
davla_				+					davlat
ozo_			+						ozod
tu_		+							tup
tarvu_							+		tarvuz
hiso_	+								hisob
rubo_	+								rubob
bar_					+				barg
Zayna_	+								Zaynab
kopto_						+			koptok
Abbo_								+	Abbos
talaffu_							+		talaffuz

O‘quvchilar javoblari tinglanib, xulosa qilinadi. Yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ustida tushuntirish ishlari olib boriladi. So‘ng o‘quvchilar daftarlariga husnixat bilan yozishadi.



Dam olish daqiqasi multimedia ilova asosida amalga oshiriladi.

- Baliq kabi suzamy,** (qo‘llar bir-biriga tekkizilib baliq kabi suzish holati ko‘rsatiladi)
- Shamol kabi esamy,** (qo‘llar yuqoriga ko‘tarilib, o‘ng va chap tomonga chayqaladi)
- Biz bilag‘on bolamy,** (qo‘llar ko‘krak qafasiga qo‘yilib, gerdayish holati ko‘rsatiladi)
- Qushdek parvoz etamy.** (qo‘llar ikki tomonga yozilib, qushdek uchish holati ko‘rsatiladi)

2-topshiriq. 2-multimedia ilova



Ekranda qish fasli tabiat manzarasi tasvirlangan. Shamol bilan kitob uchib kelib yerda turgan to‘nka ustiga tushadi. Bilarjon kitobni qo‘liga olib ochgach, harflar kitob sahifasidan chiqib, ekranda she‘r paydo bo‘ladi:

*Tanishaylik, men kito.,
Asl bilimlarga kon.
Boyluk beray behiso.,
Bo‘lsang agar qadrdon.*

Quadrat Hikmat

Kitob va behisob so‘zlarining oxirgi b undoshi tushirib qoldirilgan. Bilarjon topshiriq beradi:

– Aziz do‘stlarim, shamolda she‘rdagi ba‘zi undoshlar tushib qolibdi, ularni topishga yordam beringlar. Qor parchasidagi undoshlardan mosini bo‘sh katakka qo‘ying. (O‘quvchilar b undoshini katakka qo‘ysa, «Ofarin» so‘zi eshityladi. Agar boshqa harfni qo‘ysa, «Noto‘g‘ri», degan ovoz eshityladi. Qor parchalarda *b, p, d, t, g, k, z, s* harflari bo‘ladi.)

Bilarjon:

– Do‘stlarim, endi birinchi misradagi undoshlarni alifbo tartibida joylash-tiring. (Shunda ekranda birinchi qator-dagi so‘zlar kattalashib, qolgan qatorlar

yo‘qolib, o‘rnida 8 ta katak hosil bo‘ladi. Katakarga undosh harflar to‘g‘ri joylashtirilsa, «To‘g‘ri» degan so‘z eshitiladi. Barcha harflar kataklarga joylashtirilgach, «Barakalla» so‘zi va qarsak ovozi eshitiladi. Agar harf katakka noto‘g‘ri joylansa, harf o‘z joyiga qaytib ketadi.)

T, n, sh, y, l, k, m, b

b	k	l	m	n	t	y	sh
---	---	---	---	---	---	---	----



Multimedia ilova **48-mashq** sharti asosida tashkil etiladi. Nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib ko‘chirish, she‘rning birinchi misrasidagi undoshlarning tagiga chizish aytiladi.

She‘r matni yuzasidan suhbat uyshtiriladi:

- She‘r nima haqida ekan?
- Kitob qanday bilimlarga kon?
- Nima uchun kitob bilan qadrdon bo‘lish kerak?
- Kitobni qanday saqlashimiz lozim?

O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi.

IV. Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

Dars so‘ngida faol qatnashgan o‘quvchilar yuqorida aytib o‘tilgan nominatsiyalar bilan rag‘batlantiriladi va barcha o‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

Uyda **49-mashq**ni bajarib kelish, mashqdagi topishmoqning javobini topib, ajratilgan so‘zlardagi aytilishi yozilishiga mos kelmagan undoshlar tagiga chizish aytiladi.

O‘quvchilarga yaxshi tilaklar bildirilib, darsga yakun yasaladi.



MAVZU: TUTUQ BELGISI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga tutuq belgisi so'zlarning to'g'ri talaffuzi va yozilishi, uning so'z ma'nosini farqlashdagi vazifasi haqida bilim, tushuncha berish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni va'daga vafo qilishga, keksalarning duosini olishga, atrofdagi odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tutuq belgisi so'zlarni yozish, lug'atni boyitish, so'zdagi farqni aniqlashga o'rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat.

Jihozlar: tutuq belgisi so'zlar jadvali, tarqatmali kartochkalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) salomlashish;

b) navbatchi axborotini tinglash;

d) sinf tozaligini, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O'tilgan darsni so'rab baholash, uy vazifasini tekshirish.

Uyda bajarish uchun berilgan 49-mashqni tekshirish uchun og'zaki o'qitish orqali topishmoqning javobi topiladi, do'l haqida o'quvchilarga tushuncha beriladi. Ajratib yozilgan so'zlar ustida og'zaki o'qitish orqali taqqoslash ishlari o'tkaziladi. Aytilishida t va p tarzida talaffuz qilinsa ham, d va b undoshlari yozilishi tushuntiriladi:

Yozilishi	Aytilishi
<i>ko'kdan</i>	<i>ko'ktan</i>
<i>patirlab</i>	<i>patirlap</i>
<i>yaltirab</i>	<i>yaltirap</i>

Lug'at ishi:

ko'kdan – *osmondan*

yaltirab – *tovlanib*

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yovvoyi hayvon sher rasmi ko‘rsatiladi va u o‘rmonda yashashi haqida ma‘lumot beriladi. So‘ng to‘rt misrali she‘r o‘qib beriladi (o‘qituvchi Vatan yoki maktab haqida chiroyli she‘r o‘qib beradi). Hozir o‘qilgan narsa nima ekanligi so‘raladi. O‘quvchilar:

– Bu she‘r, – deb javob beradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi *sher* va *she‘r* so‘zlarini doskaga yozadi. Bu so‘zlarning o‘zaro farqi nimada ekani so‘raladi.

Sher – bu yovvoyi hayvon.

She‘r – bu shoirlar ijodining mahsuli ekanligi aytib o‘tiladi.

«She‘r» so‘zi quyidagicha tahlil qilinadi:

1 bo‘g‘inli

3 ta tovush, 2 ta harf, 1 ta harf birikmasi, 1 ta tutuq belgisi ishtirok etgan.

Unli tovush e, undosh tovush sh, r.

Quyidagi savol orqali yangi mavzu nima haqida ekanligi aniqlanadi:

– She‘r so‘zida qanday belgi ko‘ryapsiz?

– *Tutuq belgisi.*



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida ‘ tutuq belgisining yozilishi ko‘rsatiladi. Tutuq belgisi so‘zlar ko‘rsatiladi va yozdiriladi:

va‘da, ta‘til, Ra‘no, Jur‘at, A‘loxon.

III. Yangi mavzu bayoni.

Doskaga tutuq belgisi ishtirok etgan bir nechta so‘zlarni yozib, o‘quvchilarga o‘qitiladi. So‘ng o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan kamchiliklar o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri talaffuz qilib, o‘qib beriladi. O‘quvchilar so‘zlarni takrorlaydilar. Doskada *na‘matak, san‘at, mash‘al, qit‘a, ma‘no* so‘zlari yozilgan bo‘ladi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi undoshdan so‘ng qo‘yilgan tutuq belgisi o‘zidan oldingi undosh tovushni keyingi unli dan ajratib talaffuz qilish kerakligini bildirishini aytib, tutuq belgisi qo‘yilganda so‘zlarning ma‘nosida yuz beradigan o‘zgarishlarni izohlaydi:

qal‘a – *qala*

gal‘a – *devorlari mustahkam qilib o‘ralgan shahar yoki qishloq*

qala – *o‘tin qala*

Unli dan keyin tutuq belgisi o‘zidan oldingi unli ni cho‘ziqroq talaffuz qilishni bildiradi. Masalan: *she‘r, da‘vo, ta‘na, la‘nat* degan so‘zlarda unli harf cho‘zilib talaffuz qilinyapti.

Bundan tashqari tutuq belgisi soʻz manosini farqlashga ham xizmat qilishi tushuntiriladi.

50-mashq doskaga yoziladi. Tutuq belgili soʻzlarning aytilishi va yozilishiga oʻquvchilar diqqati qaratilib, maqollarning maʼnosi tushuntiriladi.

1. Rahmat olgan omondir,

Laʼnat olgan yomondir.

2. Vaʼdaga vafo mardning ishi.

Laʼnat, vaʼdaga vafo soʻzlari ustida tushuntirish ishlari olib boriladi.

51-mashqdagi soʻzlar tutuq belgilariga roiya qilib oʻqitiladi:

daʼva – davo

surʼat – surat

sheʼr – sher

taʼna – tana

Lugʼat ishi:

davo – *tuzalish, tuzatish maʼnosida*

daʼvo – *arz qilmoq*

taʼna – *dashnom*

tana – *odam tanasi, badani*

surʼat – *tezlik, shijoat maʼnosida*

surat – *rasm*



Dam olish daqiqasi.

IV. Mustahkamlash.

Darsni mustahkamlashda ham savol-javob usulidan foydalanilsa, oʻquvchilar faollashadi. Buning uchun oʻquvchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat etish mumkin:

1. Bugun darsda nima ishlar qildik?

2. Bu darsda siz nimalarni bilib oldingiz?

3. Tutuq belgisi nimani bildirar ekan?

4. Tutuq belgisi unidan keyin kelsa nima boʻladi?

5. Tutuq belgisi undoshdan keyin kelsa nima boʻladi?

Oʻquvchilarning javoblari tinglanib, oʻtilgan mavzu yuzasidan xulosa chiqariladi.

V. Darsni yakunlash va oʻquvchilarni baholash.

Oʻquvchilar darsdagi ishtirokiga koʻra ragʻbatlantiriladi, baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyda bajarish uchun **52-mashq** beriladi. Mashq matnini ko‘chirib, so‘zlarni tutuq belgisiga rioya qilib yozish aytiladi.



22 - d a r s

MAVZU: ALIFBO

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: alifbo haqida ma’lumot berish, so‘zlarni bo‘g‘intovush va tovush-harf jihatdan tahlil qilish orqali so‘zlarning tovush tarkibini aniqlashga o‘rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda so‘zlarni alifbo tartibida yozdirish orqali lug‘atdan foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, ko‘rgazmalilik, tushuntirish, muammoli izlanish.

Dars jihozi: proektor, alifbo jadvali, rangli rasmlar, so‘z nusxalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

– salomlashish;

– davomat;

– o‘quvchilarni darsga hozirlash.

Yil fasllari haqida suhbat uyushtiriladi va o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

– Hozir o‘lkamizda qaysi fasl?


– Kuz faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?

O‘quvchilar javobi umumlashtiriladi.

II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash:

Uyga vazifa qilib berilgan **55-mashq** og‘zaki o‘qitish orqali tekshiriladi.

O‘qilgan mavzi tutuq belgisiga oid so‘zlar ustida quyidagi ta’limiy mashq o‘tkaziladi. Plakatga bir nechta tutuq belgili so‘zlar tutuq belgisiz yozib qo‘yilgan bo‘ladi. O‘quvchilar so‘zlarni tutuq belgisiga rioya qilib o‘qiydilar va tushirib qoldirilgan tutuq belgisini tegishli joylarga qo‘yib chiqadilar.



O‘quvchilar bergan javoblari tinglanib, tutuq belgisi yuzasidan xulosa qilinadi.

Husnixat daqiqasi o‘tkaziladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu **56-mashq** asosida tushuntiriladi.

O‘qituvchi tovush va harflarni o‘quvchilar «Alifbe» kitobi yordamida bilib olganliklarini aytib, suhbat asnosida mavzuni tushuntirishda davom etib, quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat etiladi:

- «Alifbe» kitobi sizlarga nechta harflarni o‘rgatdi?
- *29 ta.*
- Ulardan nechtasi harf birikmasi?
- *3 tasi.*

O‘quvchilarga « Alifbo» ko‘rsatiladi.

- Bu nima?
- *Alifbo.*
- Barakalla! Unda nimalarni ko‘ryapsiz?
- *Harflarni.*
- Unda harflar qanday joylashtirilgan?
- *Tartib bilan.*

– «Alifbe» kitobida birinchi, ikkinchi, uchinchi bo‘lib qaysi harfni o‘rgangan edingiz? Eslab ko‘ring-chi.

- *O, n, a.*
- Qanday so‘z hosil bo‘ldi?
- *Ona.*

– Barakalla! Bolajonlar, siz birinchi bo‘lib «ona» so‘zini o‘qishni va yozishni o‘rgangan ekansiz. Endi diqqat qiling, «Alifbo»da qaysi harflar birinchi, ikkinchi, uchinchi o‘rinda turibdi?

– Aa, Bb, Dd...

– Demak, bolajonlar:

Alifboda harflar tartib bilan joylashadi.

O‘quvchilar birgalikda alifboni tartib bilan aytib chiqishadi.

IV. Mustahkamlash.

57-mashq. Mashqdagi so‘zlarda tushib qolgan harflar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib, gullar nomi o‘qiladi. Gul nomlari alifbo tartibida yozib chiqiladi. Gul nomlarini qatnashtirib bitta gap tuziladi.

N a m u n a :

Gulsapsar, karnaygul, chinnigul.

Onamning tug‘ilgan kuniga bir dasta chinnigul sovg‘a qildim.



Dam olish daqiqasi.

O‘quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida «**Davom ettir**» **didaktik o‘yini** o‘tkaziladi. O‘yin shartiga ko‘ra har bir o‘quvchi alifbo tartibida bittadan so‘z aytadi. Bu didaktik o‘yinda sinfdagi barcha o‘quvchilar ishtirok etadi. Harflar tartibida adashgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Masalan: anor, bahor, dala, elak, ..., yo‘lbars, zirak, o‘lka, g‘ildirak... kabi.

Darslik bilan ishlash.

58-mashqni o‘quvchilar mustaqil bajarishadi. Buning uchun mashqda berilgan so‘zlarni o‘qib, ularni alifbo tartibida yozadilar. Shu so‘zlardan qatnashtirib gap tuzadilar.

N a m u n a :

Izzat, kassa, mitti, novvot, naqqosh, rassom, varrak.

Odiljon katta bo‘lganda naqqoshlik kasbini egallamoqchi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Darsdagi ishtirokiga ko‘ra o‘quvchilar rag‘batlantiriladi, baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyda bajarish uchun **58-mashq** shartiga ko‘ra nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib, so‘zlarni alifbo tartibida yozib kelish, ketma-ket kelgan bir xil undoshlar tagiga chizish topshiriladi.



MAVZU. BO‘G‘IN

Darsning maqsadi:

a) **ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarga bo‘g‘in va bo‘g‘in hosil bo‘lishi haqida umumiy tushuncha berish;

b) **tarbiyaviy maqsad:** qushlarni sevish, ularning palaponlarini asrash, parvarishlash, ularga ozor bermaslik, qushlar bizning do‘stimiz ekanligi haqida tushuncha hosil qilish;

d) **rivojlantiruvchi maqsad:** so‘zlarni chiziqcha orqali bo‘g‘inga ajratib yozish, tahlil qilish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, kichik guruhlarda ishlash, ta’limiy o‘yin.

Dars jihozi: bo‘g‘inga bo‘linuvchi so‘zlar yozilgan kartochkalar, fonetik tahlil uchun shablonlar, tarqatma harflar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

– salomlashish;

– navbatchi axborotini tinglash.

Bizning shiorimiz:

*O‘rgan – o‘rgat shiori,
Boshlang‘ichdir poydevori.
Sog‘ tanda – sog‘lom aql,
Biz bunga doim kafil!*

– Bolalar, hozirgi darsimizning nomi nima?

– *Ona tilim jon-u dilim,*

Sening bilan biyron tilim.

– Barakalla!

– *Maqsadimiz barkamol inson bo‘lib el-yurtga xizmat qilish.*

II. Uy vazifasini tekshirish.

62-mashq. So‘zlarning alifbo tartibida yozilishi tekshiriladi va eng chiroyli yozgan o‘quvchilar ishlari namuna sifatida ko‘rsatiladi.

Arra, kakku, kurak, qimmat, timsoh, zarra, yo‘lbars so‘zlaridan qatnashtirib gaplar tuzish.

«**Bu – meniki**» metodi. Bu metod orqali o‘quvchilar ziyraklikka chaqiriladi. O‘qituvchi harf yozilgan kartochkalarni o‘quvchilarga tarqatadi, har bir kartochkada xar hil harf yozilgan bo‘ladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi so‘zlarni o‘qiy boshlaydi.

O‘quvchilar qo‘llaridagi kartochkalarda yozilgan harf bilan boshlanadigan so‘zni eshitishi bilanoq «Bu – meniki», – deb javob beradi. O‘qituvchi so‘zlarni tezroq o‘qiydi, o‘quvchidan ziyraklik talab qilinadi, topilgan so‘zlar alifbo tartibida terib chiqiladi.

N a m u n a :

1-variant: Tarqatiladigan harflar: A, B, O.

So‘zlar: Afrosiyob, baxt, olmaxon.

2-variant: Tarqatiladigan harflar: I, M, T, S.

So‘zlar: Inobat, taom, soat, maymun, ilon.

3-variant: Tarqatiladigan harflar: R, O, L, V.

So‘zlar: Rohat, Osiyo, Lola, vazir.

O‘yin oxirida harflar alifbo tartibida joylanadi.



Husnixat daqiqasi: berilgan topshiriqni bo‘g‘inlarga bo‘lib, husnixat bilan yozing.

O‘o‘, O‘o‘, O‘o‘.

O‘ylovsiz boshdan tosh yaxshi.

III. Yangi mavzu bayoni.

1-multimedia ilova qilinadi. Bilarjon chiqib topishmoq aytadi:

Suvga yoysa bo‘ladi,

So‘ng o‘ljaga to‘ladi.

(To‘r so‘zi kelib chiqadi.)

Bilarjon chiqib:

– Bolajonlar, ushbu katakka tartibsiz harflarni to‘g‘ri joylashtirsangiz, aytmoqchi bo‘lgan topishmoqning javobini topgan bo‘lasiz.

Bilarjonning savollari:

– Bolajonlar, to‘rda nimani tutamiz?

– Baliq tutamiz.

– Barakkala, do‘stlarim, baliq so‘zida nechta harf bor?

- 5 ta.
- Baliq soʻzida nechta unli harf bor?
- 2 ta: a, i.
- Baliq soʻzida nechta boʻgʻin bor?
- 2 ta boʻgʻin bor.

Bundan shunday qoida kelib chiqadi:

Soʻzda nechta unli harf boʻlsa, shuncha boʻgʻin hosil boʻladi. Soʻzlar boʻgʻinlarga boʻlinadi.



Dam olish daqiqasi.

63-mashq. 1-multimedia ilova tarkibida mashqda berilgan soʻzlar oʻqitiladi va qarsaklar yordamida boʻgʻinlarga boʻlinadi, boʻgʻinlar chiziqcha bilan ajratiladi.

N a m u n a : Oppoq – op-poq, so-vuq – so-vuq...

Lugʻat ishi:

musaffo – juda ham sof, begʻubor

yaxmalak – muzdan boʻlgan yer

64-mashq. Doskaga rasm ilinadi. Hikoya mavzusi ustida toʻxtaladi. Ajratilgan soʻzlar doskada boʻginga boʻlib yoziladi:

I-ni-dan, tu-xum, bu-vi-si, Ha-san, bo-la, och-di.

«**Boʻgʻindan soʻz top**» taʼlimiy oʻyini asosida amalga oshiriladi.



Tarqoq holdagi boʻgʻinlardan mashqdagi ajratilgan soʻzlarni hosil qiling.

N a m u n a : *Hasan, inidan, tuxum, buvisi, bola, ochdi.*

Matn haqida quyidagi savollar yordamida suhbat oʻtkaziladi.

1. Hikoya nima haqida ekan?
2. Hasan nima qildi?
3. Buvisi Hasanga nima dedi?
4. Bir necha kundan keyin qanday voqea sodir boʻldi?
5. Hikoyaning davomi qanday boʻlishi mumkin?

O'quvchilarning javoblari tinglanib, xulosa qilinadi. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. O'quvchilar hikoyani davom ettirishadi.

Hikoyaning davomi: Qaldirg'och bolalari katta bo'lib, yanagi yil ham Hasanjonning uyiga kelishdi. Hasanjon bundan juda quvondi. Chunki buvisining aytishicha, fayzli, tinch va osoyishta xonadonga qaldirg'och in quradi. Kelasi yil qaldirg'ochlar boshqa do'stlari bilan ham kelib, inlar qurib, palaponlarini voyaga yetkazishdi.

Topshiriq. *Ini* so'ziga ma'nodosh so'z toping.

Ini – *uyasi*

Fonetik tahlil o'tkazish.

Doskaga so'z yoziladi. Masalan: **Qaldirg'och.**

O'quvchilar qo'lga tarqatma tarqatiladi.

So'z -----

Bo'g'in -----

Unli harf -----

Undosh harf -----

O'quvchilar doskada yozilgan so'zni qo'llaridagi kartochkaga yozib tahlil qilishadi.

So'z – Qaldirg'och.

Bo'g'in – 3 ta bo'g'in.

Unli harf – 3 ta – a, i, o.

Undosh harf – q, l, d, g', ch.

Doskada to'g'ri javob ko'rsatiladi va tekshiriladi.

V. Darsni yakunlash va baholash.

O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra rag'batlantirilib, baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyga vazifa qilib **65-mashq** beriladi.

Uyga vazifa tushuntiriladi, ikki bo'g'inli so'zlarning tagiga chizish aytiladi.



MAVZU: SO‘ZLARNI BO‘G‘INLAB KO‘CHIRISH

a) ta‘limiy maqsad: so‘zlarni bo‘g‘inlab bir satrdan ikkinchi satrga ko‘chirish malakasini shakllantirish, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga rioya qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: svetofordan foydalanish, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilish, kattalarni hurmat qilishga o‘rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: bo‘g‘in ko‘chirish qoidalaridan yozma nutqda to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars usuli: suhbat, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: so‘zlarning bo‘g‘inlari yozilgan kartochkalar, markerlar, multimedia ilovalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

– Navbatchi axboroti tinglanadi. So‘ng o‘qituvchi quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat etadi:

– Bolalar, hozir o‘lkamizda qaysi fasl hukm surmoqda?

– Bahor faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?

– Bahorda qanday bayramlarni nishonlaymiz?

– Qanday bolalarni sog‘lom bola deymiz?

– Sog‘lom va komil farzand bo‘lsak vatanimizga qanday foydamiz tegadi?

Bizning shiorimiz:

*O‘rgan – o‘rgat shiori,
Boshlang‘ichdir poydevori.
Sog‘ tanda – sog‘lom aql,
Biz bunga doim kafil!*

– Bolalar, hozirgi darsimizning nomi nima ekan?

– *Ona tilim – jon-u dilim,*

Sening bilan biyron tilim.

II. Uyga vazifani tekshirish.

O'qituvchi o'tilgan mavzuni takrorlash maqsadida o'quvchilarga bo'g'inlar hosil qiluvchi rasmlarni tarqatadi. O'quvchilar bu rasmlar asosida so'zlar tuzib, bo'g'inlarga ajratib yozadi, unliharf tagiga chizadi va so'zlarni birin-ketin o'qib berishadi. Masalan: *kapalak, futbol, hassa, paxta, ukki, kosa*.

O'qituvchi o'quvchilarga bu so'zlarni bo'g'inlariga bo'lib o'z daftarlariga ko'chirib olishlarini aytadi.

68-mashq tekshiriladi. Xonqizi haqida ma'lumot olinadi, tabiatdagi foydali jihatlari haqida umumlashtiriladi.

Fonetik tahlil o'tkazish.

Doskaga so'z yoziladi. O'quvchilar qo'lga tarqatma tarqatiladi.

<i>Mashina</i>
<i>So'z -----</i>
<i>Bo'g'in -----</i>
<i>Unli harf -----</i>
<i>Undosh harf -----</i>

Namuna:

<i>So'z – Mashina.</i>
<i>Bo'g'in – 3 ta bo'g'in.</i>
<i>Unli harf – a, i.</i>
<i>Undosh harf – m, sh, n.</i>


O'quvchilar doskada yozilgan so'zni qo'llaridagi kartochkada tahlil qilishadi. Doskada to'g'ri javob ko'rsatiladi va o'quvchilarning yozganlari tekshiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.



Multimedia 1-ilova ko'rsatiladi.

Bilarjon chiqib, chorrahadan o'tmoqchi bo'ladi. Svetoforda qizil chiroq yonib turgan bo'ladi. Ichida *o-ta, o-na, a'lo* so'zlari yonib turibdi. Tirkamali mashinalarda bo'g'inli so'zlar yozilgan. Svetofor rasmi ko'rsatiladi.



Qizil rang taqiq belgisi – mumkin emas! Bo‘g‘inlab ko‘chirish mumkin emas! Masalan: *o-na, o-ta, a-ka* so‘zlarida ikkita unli harf, lekin yolg‘iz qoldirib ko‘chirish mumkin emas.

Sariq rang – ogohlantiruvchi belgi – o‘tish mumkin emas. *Ma‘no, sa‘va, da‘vo* so‘zlaridagi tutuq belgisi birinchi bo‘g‘inda qoladi, ikkinchi bo‘g‘inga o‘tishi mumkin emas.

Yashil rang – o‘tish mumkin. Barcha ikki, uch bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib ko‘chirish mumkin, – deb svetofor misolida tushuntiriladi.

Multimedia ilova asosida so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish tushuntirilgch, darslikda berilgan qoida keltirib chiqariladi:

So‘zlar bir satrdan ikkinchi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi.

69-mashq bajariladi.

O‘quvchilar oldin so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lib doskaga yozadilar, keyin savol beriladi:

– O‘ylang, so‘zlarning bir satrga sig‘may qolgan qismi ikkinchi satrga qanday ko‘chiriladi?

Bo‘g‘inlarga bo‘lish

Mu-qad-das

sar-kar-da

A-zim-jon

o-na-xon

Bo‘g‘inlab ko‘chirish

Muqad-das, Mu-qaddas

sar-karda, sarkar-da

Azim-jon

ona-xon

So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishini kuzating.

Topshiriqni bajarish jarayonida bir-birlaridan yordam so‘rashlari mumkin. Mashq bajarib bo‘lingach, so‘zlarni o‘qib, ma‘nolarini tushuntiradilar. Yozayotganda o‘quvchilarning chiroyli yozuviga e‘tibor beriladi.

O‘quvchilar har bir so‘zni daftarlariga ko‘chirib boradilar. So‘zlar ishtirokida gaplar tuzadilar.

70-mashq doskada tushuntiriladi va bajariladi.

Hi-lo-la, o-ta, sak-kiz, o‘-quv-chi, ki-tob, u-shoq.

– so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish bilan bo‘g‘inlab ko‘chirish orasidagi farq tushuntiriladi;

– o-ta, u-shoq kabi so‘zlar bo‘g‘inlab ko‘chirilmaydi, ya’ni bo‘g‘inda bitta unli harf bo‘lsa;

– ketma-ket kelgan undoshlardan birinchi bo‘g‘inda biri, ikkinchi bog‘inda ikkinchisi ajratiladi.

IV. Mustahkamlash.



Husnixat daqiqasi. Berilgan topshiriqni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasi asosida husnixat bilan yozing.

Kichkintoygina bo‘yi bor,

Aylantirilgan to‘ni bor. (Qo‘y)

71-mashqdagi so‘zlar bo‘g‘inga bo‘lib o‘qitiladi. O‘quvchilar mashqdagi so‘zlarni ikki guruhga ajratadilar. Buning uchun «**Mumkin emas!**» deb nomlangan qizil rangli katakchaga bir satrdan ikkinchi satrga bo‘linmaydigan so‘zlar yoziladi. «**Mumkin!**» deb yozilgan yashil rangdagi katakchaga bir satrdan ikkinchi satrga bo‘g‘inga bo‘linadigan so‘zlar yoziladi.

Mashqdagi so‘zlar: *Qorbobo, G‘ayrat, tennis, a‘lo, odob, eshik, o‘roq, o‘rtoq, odam, opa, ozoda, asal, e‘lon, uka.*

Mumkin emas! Mumkin!

A‘lo, odob,
eshik, o‘roq,
odam, opa,
asal, e‘lon,
uka

Qorbobo,
G‘ayrat,
tennis,
o‘rtoq,
ozoda

Lug‘at ishi:

E‘lon – *biror-bir xabarni ommaga yozma usulda yo‘ki og‘zaki usulda aytish.*

I z o h : O‘quvchilar darsning 2-bosqichida sherigidan yordam so‘rashi, o‘qituvchi so‘z topishda qiynalayotgan o‘quvchilarga yordam berishi, vazifani bajarishda o‘quvchilar dasrlikdan foydalanishlari mumkin.

V. Darsni yakunlash va baholash.

Darsga yakun yasashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etadi:

- Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
- So‘zlarni tuzishda qiynalmadingizmi?
- Mashg‘ulot paytida siz kimga yordam berdingiz?
- O‘rtog‘ingizga yordam berganingizda o‘zingizni qanday his qildingiz?
- Bugungi darsimizda qanday yangi so‘zlarni bilib oldingiz?

O‘qituvchi o‘quvchilarni uyga vazifani bajarganiga, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrata olganiga, muhokamada bergan javoblariga qarab reyting asosida baholaydi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyga vazifa qilib 72-mashq beriladi va tushuntiriladi. Matn o‘qitiladi.

*Paxtadan ip yigiriladi, **gazzlama** to‘qiladi. **O‘zbekiston** paxtasi ko‘pgina xorijiy ellarga sotiladi.*

Ajratilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra yozib kelish aytiladi.

N a m u n a :

Gaz-la-ma, O‘z-be-kis-ton, xo-ri-jiy, el-lar-ga.



32 - d a r s

MAVZU: SO‘ZNING MA’NOSI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga so‘zning ma’nosi haqida bilim berish, erkin, mustaqil ishlashga o‘rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda ona tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash, uni asrab-avaylashga o‘rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: «Video lug‘at diktant», «Raqamli joylashuv», savol-javob.

Dars ihozi: «Bilarjonni kim yengadi?» ko‘rgazmasi, darslik, proektor, kompyuter.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

– diqqatni jamlash mashqini bajarish. Buning uchun o‘qituvchi 2 satrli she‘r aytdi:

*Tinchlikni biz saqlaymiz,
Bilim olishni xohlaymiz.*

O‘quvchilar bu she‘rni takrorlaydilar;

– o‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilash va darsning «**Do‘stona kelishuv**» qoidalarini eslatib o‘tish;

– dars davomida har bir to‘g‘ri javob uchun guruhlar ishtirokiga qarab «Bugungi darsning eng **faol** o‘quvchisi», «Bugungi darsning eng **tirishqoq** o‘quvchisi», «Bugungi darsning eng **intiluvchan** o‘quvchisi» nominatsiyasilar bilan dars yakunida taqdirlanishi aytib o‘tiladi.



II. Uy vazifalarini tekshirish va o‘tilgan mavzularni takrorlash.

O‘tilgan mavzular yuzasida savol-javob o‘tkaziladi. Buning uchun «Bilar-jonni kim yengadi?» ko‘rgazmasidan foydalaniladi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan oldindan yozib, ko‘rgazma cho‘ntaklariga solib qo‘yilgan savollarga javob beradilar. O‘zlari istagan savolni olib javob beradilar, to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi rag‘bat kartočkasi bilan rag‘batlantirilib boriladi.

Ko‘rgazmadagi savollar:

1. So‘zlar nimalarga bo‘linadi?
2. Qaysi tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi?
3. So‘zlar birinchi satrdan ikkinchi satrga qanday ko‘chiriladi?
4. «Qaldirg‘och» so‘zi nechta bo‘g‘inli so‘z?
5. Alifboda nechta unli tovush bor?
6. Alifboda nechta undosh tovush bor?



Husnixat daqiqasi: multimedia ilova asosida gap yozishda harflarning bog‘lanishi va so‘zlar orasidagi masofa tushuntiriladi:

*Gulsiz bo‘lar mevasi,
Shirin-shakar donasi. (Anjir)*

III. Yangi mavzu bayoni.



Yangi mavzu **81-mashq** asosida tushuntiriladi.

1-multimedia ilova.

Tabiat manzarasi tasvirlangan rasmda ketma-ket osmonda uchayotga qushlar, chopib ketayotgan ot, suvda suzayotgan baliq va kitob o‘qiyotgan qizchanning rasmlar ko‘rsatiladi. Rasmdagi shaxs va narsalarga Kim?, Nima?, Nima qiladi? so‘roqlari berilib, ularning nomlari va ular qanday harakatni bajarishlari aniqlanadi.

Savollar

1. Bu nima? (Qush)

Qush rasmi ekranda kattalashtirilib, uchib ketayotgan holati ko‘rsatiladi.

2. Qush nima qiladi? (Uchadi).

Shunda qush rasmining pastki qismida «Qush uchadi» yozuvi paydo bo‘ladi.

3. Bu nima? (ot)

Ot rasmi ekranda kattalashtirilib yugurib ketayotgan xolati ko‘rsatiladi.

4. Ot nima qiladi? (Yuguradi).

Shunda ot rasmining pastki qismida «Ot yuguradi» yozuvi paydo bo‘ladi.

5. Bu nima? (Baliq)

Baliq rasmi ekranda kattalashtirilib, suzib ketayotgan holati ko‘rsatiladi.

6. Baliq nima qiladi? (Suzadi)

Shunda baliq rasmining pastki qismida «Baliq suzadi» yozuvi paydo bo‘ladi.

7. Bu kim? (O‘quvchi)

O‘quvchi rasmi ekranda kattalashtirilib, kitob o‘qiyotgan holati ko‘rsatiladi.

8. O‘quvchi nima qilyapti? (O‘qiyapti).

Shunda o‘quvchi rasmining pastki qismida «O‘quvchi o‘qiyapti» yozuvi paydo bo‘ladi.

9. Nima? so‘rog‘iga nechta so‘z javob bo‘ldi? (3 ta: qush, ot, baliq)

10. Kim? so‘rog‘iga nechta so‘z javob bo‘ldi? (1 ta: o‘quvchi)

IV. Mustahkamlash.

82-mashq asosida o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi.

Videolug‘at diktant mashqi o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javoblarni daftarlariga yozadilar:

1. Qanday gul? (*sariq gul*)
2. Qanday olma? (*qizil olma*)
3. Nechta nok? (*ikkita nok*)

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, ekranda ko‘rsatilgan so‘zlar yordamida o‘z xatolarini tekshiradilar va xulosa qilinadi. Ushbu topshiriqlar slaydlar orqali namoyish etiladi.



Dam olish daqiqasi. Multimedia ilova yoki qo‘l harakatlari yordamida bajariladi:

*Hoy olma, olma, olma,
Meni ovora qilma.
Biroz egil, bo‘y cho‘zay,
Olmalaringdan uzay.*

IV. Mustahkamlash.

83-mashq. «**Raqamli joylashuv**» ko‘rgazmasi asosida bajariladi

Buning uchun mashqdagi so‘zlar raqamlar ichiga yozib chiqiladi, o‘quvchilar avval kim?, so‘ng nima?, nima qildi?, qanday?, nechta? so‘rog‘iga javob bo‘lgan raqamni aniqlaydilar va so‘zlarni guruhlab yozadilar.

1 qizil	2 Gulsara	3 kuldi	4 bodom
5 ochildi	6 shirin	7 besh	8 uxladi
9 ishchi	10 Durdona	11 ko‘za	12 o‘n ta

Javoblar

Kim?	2, 9, 10	(Gulsara, ishchi, Durдона)
Nima?	4, 11	(bodom, ko'za)
Nima qildi?	3, 5, 8	(kuldi, ochildi, uxladi)
Qanday?	1, 6	(qizil, shirin)
Nechta?	7, 12	(besh, o'nta)

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars so'ngida faol qatnashgan o'quvchilar yuqorida aytib o'tilgan nominatsiyalar bilan rag'batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyda bajarish kelish uchun **84-mashq** beriladi. So'zlar o'qitiladi va ularga so'roq berib, qanday ma'no bildirayotgani aniqlanadi. So'ng quyida berilgan jadvalga guruhlab yoziladi.

N a m u n a :

<i>Kim?</i>	<i>Nima?</i>	<i>Qanday?</i>	<i>Nima qildi?</i>
<i>Muyassar</i>	<i>oy</i>	<i>baland</i>	<i>o'qidi</i>
<i>shifokor</i>		<i>aqli</i>	<i>so'zladi</i>

O'quvchilarga yaxshi tilaklar bildirilib, darsga yakun yasaladi.



33 - d a r s

MAVZU: SO'ZNING MA'NOSI (MUSTAHKAMLASH)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning so'z ma'nosi, kim?, kimlar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini, mehnat qilishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, tabiatni sevishga, hasharotlar va qushlarning foydali jihatlarini anglashga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarni ijodiy fikrlash va ishlashga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim, tushuncha, malakani shakllantiruvchi dars

Dars metodi: videotopishmoq texnologiyasi, Sinkveyn, «Beshinchisi ortiqcha» texnologiyasi.

Dars jihozi: slaydli topshiriqlar, rasmlar, tarqatmalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

– salomlashish;

– o‘quvchilarni darsga hozirlash (o‘quvchilarni guruhlarga ajratish).

O‘quvchilarga kartochkalar tarqatiladi, unda kim?, nima?, qanday?, nima qildi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar rasmi bilan ko‘rsatilgan bo‘ladi. Kimga qanday rasm tushsa, shu guruhga borib o‘tiradi. (Masalan: olma nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, o‘quvchi mevalar guruhiga borib o‘tiradi. Kimlar? so‘rog‘iga javob bo‘lgan rasm olgan o‘quvchi sportchilar guruhiga borib o‘tiradi).

II. Uy vazifasini tekshirsh.

O‘quvchilardan uyga berilgan **87-mashq** so‘raladi. Monitorda rasm ko‘rsatiladi. «**Videotopishmoq texnologiyasi**»dan foydalangan holda so‘raladi. O‘quvchilarga muallim, kutubxonachi, quruvchilar, mehmonlar, shoir, qo‘shnilar rasmi aks etgan tasviriy rasmlar yoki videolavha namoyish etiladi. O‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish bilan muhokama o‘tkaziladi:

– **Kim? – Muallim, kutubxonachi, shoir.**

– **Kimlar? – Quruvchilar, mehmonlar, qo‘shnilar.**

«**Sinkveyn**» **metodi.** Multimedia ilova asosida amalga oshiriladi yoki quyidagi usuldan foydalaniladi.

Bu metoddan foydalanganda o‘qituvchi mavzuga mos bitta so‘z tanlaydi va sinkveyn tuziladi. Bunda keyingi so‘zlar ma‘nosiga qarab savol asosida yoziladi va oxirida gap hosil qilinadi.

Quruvchilar so‘ziga sinkveyn tuzishadi. Buning uchun ushbu gapda ishtirok etgan so‘zlarga savollar beriladi:

1. Quruvchilar – kimlar?

2. Ko‘rkam va chiroyli – qanday?

3. Bino – nima ?

4. Qurdilar – nima qildilar?

5. Quruvchilar ko‘rkam va chiroyli bino qurdilar.

Har bir soʻz izohlanadi, savol beriladi, quruvchilik kasbi haqida maʼlumot beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu **88-mashq** asosida «**Mozaika**» usulida tushuntiriladi. Oʻquvchilar kitoblarini yopishadi. Oʻqituvchi tomonidan konvertga solingan soʻzlar qirqimlari tarqatiladi. Vaqt belgilanadi. Har bir guruh konvertdagi soʻzlardan gap hosil qiladi. Vaqt tugagach, oʻqituvchi guruh sardorlariga taqdimot uchun navbat beradi.

Masalan:

1 - g u r u h uchun *keldi, dala, boshladi, ishlarini, Bahor, Dehqon.*

2 - g u r u h : *chiqdi, gullar, Quyosh, qip-qizil, ochildi, boʻlib.*

3-g u r u h : *Chaqmoq, yogʻdi, kuchli, chaqdi, yomgʻir.*

Oqituvchi muhokamadan soʻng qaysi guruh vazifani belgilangan vaqt ichida tez va toʻgʻri bajargan boʻlsa, oʻsha guruh gʻolib ekanligini aytadi.

88-mashqni guruh aʼzolaridan biri doskaga yozadi.

Kim?, nima qildi? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarning tagiga chiziladi, doskada husnixat tarzida yozdiriladi.



Dam olish daqiqasi oʻtkaziladi:

Toʻp, toʻp, toʻp, toʻp,

Futbolchilar tepar toʻp.

Darvozabon xoʻp shoshar,

Ishqibozlar qarashar.

Ana, ana, gol boʻldi,

Hisob bir-u nol boʻldi.

Ushbu dam olish daqiqasida kim?, kimlar? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar aniqlanadi.

Kimlar? toʻp tepdi – **Futbolchilar.**

Kim? shoshdi – **Darvozabon.**

Kimlar? qarashar – **ishqibozlar.**

IV. Yangi mavzusi mustahkamlash.

Yoʻmgʻir – nima? Oʻrmladi – nima qildi? Sayroqi – qanday? tarzida savol-javob oʻtkaziladi.

Chiroyli va bexato yozgan guruh ragʻbatlantiriladi.

Shundan so‘ng «Beshinchisi ortiqcha» metodidan foydalanib o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi:

1. Bog‘bon, darvozabon, muallim, quruvchi, **yomg‘ir. (Kim?)**
2. Chiroyli, baland, ko‘rkam, mevali, **keldi. (Qanday?)**
3. Tindi, o‘rmaladi, boshlandi, keldi, **chumoli. (Nima qildi?)**

89-mashq sharti o‘qiladi. Duskada har bir guruh a‘zosi so‘roqlar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, foydalanish uchun so‘zlardan foydalangan holda gaplarni ko‘chiradi. Tuzgan gaplaridagi har bir so‘z nimani bildirayotganligini izohlaydi.

1-guruh: (Nima?) tindi. – Yomg‘ir tindi.

Izoh: Nima? – yomg‘ir.

Nima qildi? – tindi.

2-guruh: Chumoli (nima qildi?) – Chumoli o‘rmaladi.

Izoh: Nima? – chumoli.

Nima qildi? – o‘rmaladi.

3-guruh (Qanday?) qushlar navosi boshlandi. – Sayroqi qushlar navosi boshlandi.

Izoh: Qanday? – sayroqi.

Nimalar? – qushlar.

Nima qildi? – boshlandi.

To‘g‘ri va xatosiz bajargan guruh a‘zosi rag‘batlantiriladi.

V. Darsni yakunlash va baholash.

G‘olib guruhlar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

90-mashq tushuntiriladi. So‘roqlar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozish kerakligi aytiladi.

Quyosh (nima qildi?). – Quyosh chiqdi.

(Kim?) bog‘ga bordi. – Bog‘bon bog‘ga bordi.

U bog‘da (qanday?) daraxt o‘tqazdi. – U bog‘da mevali daraxt o‘tqazdi.



MAVZU: SHAXS VA NARSANING NOMINI BILDIRGAN SO‘ZLAR

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda kim?, nima? so‘roqlari yordamida shaxs va narsani bildirgan so‘zlarni aniqlash, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish, erkin, mustaqil ishlashga o‘rgatish, mashqlar bajarish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarning ona-Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: savol-javob, induksiya, rasmlilug‘at diktant.

Dars jihozi: tarqatma topshiriqlar, multimedia ilovalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchi axborotni tinglash;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarliklarini tekshirish;
- diqqatni jamlash mashqlarini bajarish;
- o‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilash va darsning «Do‘stona kelishuv» qoidalarini eslatib o‘tish.

II. Uyga vazifalarni tekshirish.

90-mashq. O‘qituvchi mashqdagi gaplarni savol tariqasida o‘qiydi. O‘quvchilar bir so‘z bilan javob beradilar.

N a m u n a :

- Quyosh nima qildi?
– *Chiqdi.*
- Kim bog‘ga bordi?
– *Bog‘bon.*
- U bog‘ga danday daraxt o‘tqazdi?
– *Mevali.*

Qolgan o‘quvchilar daftarlaridan kuzatib tekshiradilar.



Husnixat daqiqasi: Multimedia ilova asosida gap yozishda harflarning bog‘lanishi va so‘zlar orasidagi masofa tushuntiriladi:

Vatani borning – baxti bor.

III. Yangi mavzu bayoni.



Multimedia ilova asosida yangi mavzu tushuntiriladi. **91-mashq**dagi she‘r o‘qib eshittiriladi;

*Ulug‘ **Temur bobomiz***

Sevgan, sig‘ingan Vatan!

***Bobur Mirzo** doimo*

Qo‘msab sog‘ingan Vatan.

Rauf Tolib

O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan mirojaat etilib, she‘r matni ustida ishlanadi:

- She‘r sizlarga yoqdimi?
- She‘r nima haqida ekan?
- Vatanimizni kim sevgan, sig‘ingan ekan?
- Vatanimizni kim doim sog‘inib yashagan ekan?
- Qo‘msab so‘ziga ma‘nodosh so‘z toping.

(O‘qituvchi she‘rning oxirgi misrasida qo‘msab, sog‘ingan so‘zlarining ketma-ket kelishi ma‘no kuchaytirish uchun xizmat qilishini ta‘kidlaydi.)

Multimedia ilovada Kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni she‘r matnidani aniqlaganlarida Amir Temur hamda Bobur Mirzo rasmi ekranda paydo bo‘ladi. O‘qituvchi ulug‘ siymolar haqida qisqacha suhbat uyushtiradi.

IV. Mustahkamlash.

92-mashq. Multimedia ilova namoyish etiladi. O‘quvchilar quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

- Bolajonlar, rasmlarga so‘roq bering.
- Rasmlarni guruhlab, tegishli o‘rinlarga joylashtiring.

O‘quvchilar ekrandagi qush uyasiga qushlarni, guldonga gullarni, savatchaga sabzavotlarni joylashtirib chiqadilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollarni berib, mashqni xulosalaydi:

- Bu rasmlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ldi?
- Rasmlar qanday guruhlarga ajratildi?

- Guruhdagi rasmlarning qanday umumiy jihati bor?
- Kim? so‘rog‘i qaysi so‘zlarga beriladi?
- Nima? so‘rog‘i qaysi so‘zlarga beriladi?

O‘quvchilarning javoblari umumlashtirilib, darslikdagi qoida chiqariladi:

**Shaxsni bildirgan so‘zlar kim?, narsani bildirgan so‘zlar nima?
so‘roqlariga javob bo‘ladi**

Multimedia ilovadan foydalanish imkoni bo‘limganda quyidagi jadval asosida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq berib, o‘quvchilarga so‘zlarning umumiy guruhiga qo‘shuv belgisi qo‘yishlari aytiladi:

Narsalar nomi	Qush	Gul	Sabzavot
sabzi			+
turna	+		
qaldirg‘och	+		
binafsha		+	
chuchmoma		+	
piyoz			+
laylak	+		
kartoshka			+
lolaqizg‘aldoq		+	

O‘quvchilar javoblari tekshiriladi va xulosa qilinadi.

Rasmi lug‘at diktant o‘tkaziladi. O‘quvchilar rasmda ko‘rgan shaxs va narsa nomlarini daftarlariga yozadilar. Yozib bo‘lishgach, 3–4 nafar o‘quvchiga yozganlari o‘qitiladi.



N a m u n a :

Daraxt, lola, maysa, bola, varrak, osmon, bulut, qushlar, quyosh, tog‘, yer.



Dam olish daqiqasi. Bunda o‘quvchilar quyidagi she‘rni harakatlar yordamida aytadilar:

*Hoy olma, olma, olma,
Meni ovora qilma.
Biroz egil, bo‘y cho‘zay,
Mevalaringdan uzay.*

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars so‘ngida faol qatnashgan o‘quvchilar yuqorida aytib o‘tilgan nominatsiyalar bilan rag‘batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.



Uyda **93-mashq**ni bajarib kelish aytiladi. Multimedia ilova asosida tushuntiriladi. Mashqdagi kasb egalariga tegishli bo‘lgan jihozlarni o‘quvchilar o‘z o‘rniga qo‘yishlari va ularga so‘roq berishlari kerak.

N a m u n a :

Bog‘bonning tok qaychisi va gulini qo‘liga joylashtirib, qaysi kasb egasi ekanligini aniqlaydilar hamda shaxsga so‘roq beradilar. Shu tarzda qolgan kasb egalari ham aniqlanadi.

O‘quvchilarga yaxshi tilaklar bildirilib, darsga yakun yasaladi.



37 - d a r s

MAVZU: KISHILAR ISMI VA FAMILIYASINING BOSH HARF BILAN YOZILISHI

Darsning maqsadi:

a) ta‘limiy maqsad: kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar, kishi ismi va familiyasining, joy nomlarining, hayvon nomlarining bosh harf bilan yozilishi haqidagi bilimlarni aniqlash, ulardan to‘g‘ri foydalana olish malakalarini tekshirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni vatanparvarlik va ajdodlarimiz bilan faxrlanish ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar nutqini o‘stirish, yangi so‘zlar bilan boyitish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: savol-javob.

Dars jihozi: doska, tarqatma materilallar (testlar, kartochkalar), rasmlı plakatlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- o‘quvchlarni darsga hozirlash;
- navbatchining axboroti;
- sinf tozaligini nazorat qilish.

II. Uy vazifasini tekshirish.

Uyga berilgan **96-mashq**dagi so‘zlar ushbu jadvalga yozib chiqiladi. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan jadvalga mashq matni asosida ketma-ket kelgan so‘zlarni so‘roqlariga ko‘ra birin-ketin yozadilar. Qolgan o‘quvchilar daftarlaridan o‘z-o‘zlarini tekshiradilar.

Kim?	Nima?	Kimlar?	Nimalar?
Halima	hovli	mezbonlar	o‘yinchoqlar
mehmon	darvoza	o‘quvchilar	ustunlar
Mukambar	daraxt		
chavandoz	tennis		
	zinapoya		
	ayvon		
	gilam		

O‘qituvchi so‘zlar bir nechta shaxsni bildirsa, kimlar?, ikkidan ortiq narsani bildirsa, nimalar? so‘roqlariga javob bo‘lishini suhbat asnosida o‘quvchilarga yana bir bor tushuntirib o‘tadi.



Husnixat daqiqasi: Gaplar husnixat asosida yoziladi.

Vohid varrak yasadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

97-mashq. Mashqdagi jadval asosida yangi mavzu tushuntiriladi.

bobo	Nurmat	Husanov
buvi	Sharofat	Majidova
ota	Hikmat	Nurmatov
ona	Xosiyat	Nurmatova
aka	Ne'mat	Hikmatov
singil	Dilafro'z	Yo'ldosheva

So'zlarning yozilishi taqqoslanadi. Quyidagi savollar yordamida bosh va kichik harfda yozilgan so'zlar ustida ishlanadi:

- Birinchi ustundagi so'zlar nima uchun kichik harflar bilan yozilgan?
- Bobo, buvi, ota, ona, aka, singil – oila a'zolarining umumiy nomi.
- Nima uchun ikkinchi ustundagi so'zlar bosh harflarda yozilgan?
- Nurmat, Sharofat, Hikmat, Xosiyat, Ne'mat, Dilafro'z – kishilarga atab o'yiladigan nomlar.
- Nima uchun uchinchi ustundagi so'zlar ham bosh harf bilan yozilgan?
- Hasanov, Majidova, Shodiyeva, Ro'ziyev, Hikmatov – kishilarning familiyasi.

Javoblar tinglanib, xulosa qilinadi va darslikda berilgan mavzuga oid qoida chiqariladi:

Kishilarning ismi va familiyasi bosh harf bilan yoziladi.



Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

IV. Mustahkamlash.

Mustahkamlash uchun «**Mening oilam**» nomli didaktik o'yin o'tkaziladi. O'quvchilarga quyidagi tarqatma kartochkalar tarqatiladi:

Mening oilam

	Ismi	Familiyasi
ota		
ona		
opa		
aka		
singil		
uka		
men		

Ular o‘z oila a‘zolarining ismi va familiyasini yozib chiqadilar. Qaysi oila a‘zolari bo‘lmasa, chiziqcha belgisini qo‘yadilar.

N a m u n a :

Mening oilam

	Ismi	Familiyasi
ota	Ahmadali	Abdurahmonov
ona	Sanobar	Abdurahmonova
opa	Dilorom	Abdurahmonova
aka	Akbarali	Abdurahmonov
singil	–	–
uka	Ulug‘bek	Abdurahmonov
men	Dilbaroy	Abdurahmonova

Topshiriqlar bajarib bo‘lingach, tarqatma yig‘ib olinadi va baholanadi.

Quyidagi savollar bilan dars umumlashtiriladi:

– Nima uchun biz bosh harf bilan bu so‘zlarni yozdik?


– Ismlarga yana nima qo‘shib yoziladi?

O‘quvchilar uchun «**Kim ko‘p ism topish?**» ta‘limiy o‘yini o‘tkaziladi.

1-qatorga «Gul» so‘ziga qizlarning ismini kim ko‘p topish;

2-qatorga «Sher» so‘ziga o‘g‘il bolalar ismidan kim ko‘p ism topish topshirig‘i beriladi. O‘qituvchi ijodiy yondashgan holda turli shakllardan foydalanishi mumkin.

1 - n a m u n a :



2 - n a m u n a :

Sher	zod
Sher	mat
Sher	ali
Sher	muhammad
Sher	dor
Sher	qobil
Sher	dil

98-mashq. Matn mazmuni qayta hikoya qilinadi va shartiga ko‘ra mustaqil bajariladi. Ismlarga familiya qo‘shib ko‘chiriladi.

Opa-singillar

*Nilufar, Xurshida va Xolida **Hamidovalar** opa-singillar. Ularning onasi Saodat **Hamidova** – mohir chevar. Qizlar ham onalaridan bichish-tikishni o‘rganishgan.*

V. Darsga yakun yasash va baholash.

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra rag‘batlantirilib, baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyda **99-mashq**ni bajarib kelish topshiriladi va bajarish usullari tushuntiriladi. Rasmni kuzatib, bolalarga ism qo‘yiladi. Quyidagi savollarga javob yozib kelish aytiladi. Yozgan gaplaridagi shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar tagiga tegishlicha chiziladi:

1. Kim kutubxonaga bordi?
2. Kutubxonada kimlar bor edi?
3. Kim Ma‘murga kitob berdi?

O‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilab, darsga yakun yasaladi.



39 - d a r s

MAVZU: JOY NOMLARINING BOSH HARF BILAN YOZILISHI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: shaharlar, ko‘cha, qishloq va daryolarga qo‘yilgan nomlar haqidagi tasavvurni shakllantirish, shu nomlarning bosh harf bilan yozilishi haqidagi ko‘nikmalarni o‘stirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni vatanparvarlik va ajdodlarimiz bilan faxrlanish ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash, yurtimizdagi shahar, ko‘cha nomlarini bildirgan so‘zlar bilan lug‘atini boyitish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: darslik, tarqatma materiallar, testlar, kartochkalar, rasimli plakatlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchi axboritini tinglash;
- sinf tozaligini nazorat qilish;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rab baholash.

Uyda bajarib kelish uchun berilgan **102-mashq** parta oralab yurib bajarilgani tekshirib olinadi va yozuv daftarlari almashtiriladi.

Kishi nomlaridan «Zanjir» ta‘limiy o‘yini o‘tkaziladi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshiriladi.

O‘yin sharti: aytilgan so‘zning so‘nggi harfi qaysi tovush bo‘lsa, shu harf bilan boshlanadigan so‘z topish va o‘zlari uchun belgilangan varaqqa yozish. O‘yin kichik guruhlarda o‘tkaziladi. Guruhlar o‘zlariga shahar nomlaridan nom qo‘yadilar.

N a m u n a :

1-guruh «Buxoro» guruhi:

Salima (A), Asal (L), Lobar (R)...

2-guruh «Samarqand» guruhi:

Asadbek (K), Karima (A), Adolat (T)...

3-guruh «Farg‘ona» guruhi:

Murod (D), Diyora (A), Aziz (Z)...



Husnixat daqiqasi: So‘zlar husnixat asosida yoziladi.

Yakkasroy, Chilonzor, Uchtepa, Yunusobod, Mirobod.

III. Yangi mavzu bayoni.

103-mashq. Rasmda qaysi shahar tasvirlanagan? Matnni o‘qing.

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti. Toshkentning yerosti shaharchasi metro deyiladi. Metroning Chilonzor, O‘zbekiston, Yunusobod yo‘nalishlarida poyezdlar qatnaydi.

Toshkentda Fransiya, Germaniya, Rossiya, Koreya, Yaponiya kabi ko‘plab xorijiy davlatlarning elchixonalar joylashgan.

Quyidagi savol-javob orqali matn mazmuni ustida ishlanadi:

1. Joy nomlari qanday harf bilan yozilgan?

(Bosh harf bilan yozilgan.)

2. Nima uchun?

(Chunki joy nomlari ana shu joyga atab qo‘yilgan.)

O‘quvchilar javoblari tinglanib, o‘qituvchi fikri bilan xulosa qilinadi va qoida chiqariladi:

Joy nomlari bosh harf bilan yoziladi.

IV. Mustahkamlash.

104-mashq. Mashq shartiga ko‘ra bajariladi. Matn ifodali o‘qitiladi.

Ko‘hna Urganch Xorazm davlatining poytaxti edi. Uni Chingizxon qo‘shinlari vayron etdi. Jaloliddin Manguberdi Vatan ozodligi uchun kurashdi.

- Matndan nimalarni bilib oldingiz?
- Joy nomlari va shaxs ismlarini aniqlang.
- Ularga so‘roq bering.

Matn ko‘chiriladi. Joy nomlari va kishi ismlarining tagiga chiziladi.

Vayron so‘zi ustida lug‘at ish o‘tkaziladi.

Vayron – *buzdi, buzilib ketgan*

V. Dars yakunlash va baholash.

O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

105-mashq. Mashq sharti tushuntiriladi. Matndan faqat joy nomlari aniqlanib, tartib bilan ko‘chiriladi. Yoki ushbu ko‘rinishdagi jadval asosida ham yozish mumkin.

Viloyat	Tuman
Farg‘ona	Yaypan
	Nursuq
	Qudash
	Buvayda
	Tolliq
	Olqor
	Yulg‘unzor
	Oqqo‘rg‘on

O‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilagan holda darsga yakun yasaladi.



MAVZU: SHAXS VA NARSANING HARAKATINI BILDIRGAN SO‘ZLAR

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlarni *nima qildi?*, *nima qilyapti?*, *nima qilmoqchi?* so‘roqlari yordamida aniqlash yuzasidan o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, partada to‘g‘ri o‘tirish qoidasini uqtirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar nutqini harakatni bildiruvchi so‘zlar bilan boyitish, ulardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars uslubi: ko‘rgazmali, suhbat, analiz, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, testlar, rasmiy plakatlar.

Darsning borishi:**I. Tashkiliy qism:**

- salomlashish;
- navbatchining axboroti;
- sinf tozaligini nazorat qilish;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rab baholash.

O‘quvchilar bilan «**Issiq kartoshka**» ta’limiy o‘yini o‘tkaziladi. Buning uchun o‘qituvchi so‘z aytadi va qo‘lidagi koptokni bir o‘quvchiga otadi. Har bir qatorga alohida vazifali savol beriladi.

1-qatorga kishilarning ismi, familiyasi;

2-qatorga joy nomlari;

3-qatorga hayvon nomlari.

Har bir qatorda alohida vazifa asosida so‘z o‘yini tashkil etiladi.

Koptokni ilib olgan o‘quvchi shu mavzuga oid so‘z aytib, u ham boshqa o‘quvchiga koptokni otadi. O‘yinning sharti bo‘yicha so‘zlar takrorlanmasligi va ushlab turilmasligi kerak. Kimda-kim shunday xatolikka yo‘l qo‘ysa, o‘yindan chiqqan hisoblanadi.

N a m u n a :**1-qator:**

- Nasiba Asadovna.

- Hamid Botirov.
- Nigora Abdug‘ani qizi...

2-qator:

- Andijon.
- Yunusobod tumani.
- Beruniy metrosi.
- Shahrston ko‘chasi...

Joy nomlari aytiladi, faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

3-qator:

- Olapar.
- Mosh.
- Ko‘kyol...

114-mashq. Uyga vazifa o‘quvchilarga og‘zaki o‘qitiladi. Chiziqchalar o‘rniga qo‘yilgan joy nomlari qanday so‘roqlariga javob bo‘lgani so‘raladi. O‘quvchilar o‘zlari yashaydigan joy nomlarini qo‘yib o‘qiydilar.



Husnixat daqiqasi o‘tkaziladi. So‘zlar husnixat asosida yoziladi.

Yozda kiynadi,

Qishda yechinadi.

(Daraxt)

III. Yangi mavzu bayoni:

Multimedia ilova **115-mashq** asosida tashkil qilinadi.

Monitorda o‘qituvchi, o‘quvchi, shifokor va kichkina qizcha rasmi namoyish etiladi. Rasmlar o‘rtasida *o‘qitadi, o‘qiydi, davolaydi, o‘ynaydi* so‘zlariga o‘quvchilar so‘roq beradilar. Kim nima qiladi? savoliga javob topishlari uchun harakatni bildirgan so‘zni shu harakatni bajaradigan shaxs rasmining ostiga olib boradilar. O‘quvchilar topshiriqni to‘g‘ri bajarsa, monitorda quyidagi gaplar hosil bo‘ladi:

O‘qituvchi o‘qitadi.

O‘quvchi o‘qiydi.

Shifokor davolaydi.

Qizcha o‘ynaydi.

Hosil bo‘lgan gaplarni o‘quvchilar daftarlariga yozadilar. Harakatni bildirgan so‘zlar tagiga ikki to‘g‘ri chiziq chizish topshirig‘i beriladi.

Mashq matni yuzasidan o‘qituvchi quyidagicha suhbat uyushtiradi:

- Tuzgan gaplaringizda qaysi soʻzlar *kim*? soʻrogʻiga javob boʻldi?
 - Shaxslarning harakatini bildirgan soʻzlarni ayting.
 - Oʻqituvchi nima qiladi?
 - *Oʻqitadi.*
 - Oʻquvchi nima qiladi?
 - *Oʻqiydi.*
 - Shifokor nima qiladi?
 - *Davolaydi.*
 - Qizcha nima qiladi?
 - *Oʻynaydi.*
 - Shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlarga qanday soʻroq beramiz?
- Suhbat asnosida darslikdagi qoida oʻquvchilarning javobi asosida kelib chiqadi.


Shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlar nima qildi?, nima qilyapti? yoki nima qiladi? soʻroqlariga javob boʻladi.

IV. Mustahkamlash.



Multimedia ilova 116-mashq asosida tashkil qilinadi.

Mashqdagi rasm asosida ilova namoyish etiladi. Bolalarning har biri nima qilayotganini bir soʻz bilan ifodalashlari uchun harakat bildirgan soʻzlarni topishlari kerak. Buning uchun oʻquvchilar katakka katak atrofidagi tartibsiz harflarni shunday joylashtirishlari lozimki, natijada shaxsning harakatini bildirgan soʻz hosil boʻlsin.



Dam olish daqiqasi.

Rasm diqqat bilan kuzatiladi. Doskaga quyidagicha jadval ilinadi.

Rasmga qarab nima qildi?, nima qilmoqchi?, nima qilyapti? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni yozadilar. (*Oʻqituvchi shu mavzuga mos boshqa rasm asosida ham tashkil etishi mumkin.*)




N a m u n a :

Nima qildi?	Nima qilmoqchi?	Nima qilyapti?
sakradi	tepmoqchi	gaplashayapti
yugurdi	sakramoqchi	yuguryapti
uchdi	uchmoqchi	uchyapti

O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

«**Harfdan fe’l top**» ta’limiy o‘yini o‘tkaziladi. O‘yin shartiga ko‘ra sinf kichik ikki kishilik guruhlariga bo‘linadilar. O‘qituvchi tomonida avvaldan tayyorlangan ushbu ko‘rinishdagi tarqatmalar tarqatiladi.



V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.



Multimedia ilovada **117-mashq** sharti o'qib beriladi. O'quvchilar *nima qildi? nima qilyapti?, nima qiladi?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib yozadi. Bu multimedia ilova asosida tashkil etiladi.

Tabiat manzarasi tasvirlangan. Unda uchta gul bo'lib, gullarning yaproqlari birikadigan markaz doirasiga *nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?* so'roqlari yozilgan bo'ladi. Atrofdan esa bir nechta kapalaklar uchib yuradi. Kapalaklar qanotiga quyidagi so'zlar yozilgan bo'ladi: *qochdi, qo'ndi, ishlaydi, uzyapti, chiqyapti, kelyapti, qoladi, chiqdi.*

O'quvchilar so'zlarni o'qib, so'roqlarga mos keladigan kapalaklarning gulga qo'nishiga yordam beradilar.

Multimedia ilovadan foydalanish imkoniyati bo'lmaganda, mashqni quyidagi jadval asosida bajarish mumkin.

N a m u n a :

Nima qildi?	Nima qilyapti?	Nima qiladi?
qochdi	uzyapti	ishlaydi
qo'ndi	chiqyapti	oladi
chiqdi	kelyapti	qoladi



MAVZU: SHAXS VA NARSANING BELGISINI BILDIRGAN SO‘ZLAR

Darsning texnologik xaritasi

O‘quv materiali: Belgining turini bildirgan so‘zlar			
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: belgi, rang, maza, shakl, to‘lqinli chiziq. Mavzuga ajratilgan vaqt: 45 minut.			
Mavzuning qisqacha ta’rifi: o‘quvchilar dars yakunida belgining turini bildirgan so‘zlar, so‘zlarga so‘roq berish orqali ma’nosini aniqlash haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.			
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars. Dars metod: suhbat, analiz-sintez, tushuntirish, ta’limiy o‘yin. Dars jihozi: darslik, mavzu asosida tayyorlangan slayd, rag‘batlantirish uchun kartochkalar, mavzuga mos rasmlar. Nazorat: og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘zini-o‘zi nazorat qilish. Baholash: o‘quvchilar dars yakunida baholanadilar.			
Darsning maqsadi va vazifalari			
Maqsadlar:			
a) ta’limiy maqsad: belginiturini bildirgan so‘zlar haqidagi bilimlarini kengaytirish, so‘zlarga so‘roq berish orqali belgining ma’nosini aniqlay olishga o‘rgatish. b) tarbiyaviy maqsad: mashqdagi matn orqali o‘quvchilarni odob-axloqli, shirinsuxan bo‘lishga undash; d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar lug‘atini boyitish, topqir bo‘lishga undash.			
Kutilayotgan natija:			
Dars yakunida o‘quvchilar belgining turini bildirgan so‘zlar, so‘zlarga so‘roq berish orqali ma’nosini aniqlash haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish nomi	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	– salomlashish; – o‘quvchilar davomatini aniqlash; – sinfning darsga tayyorgarligini tekshirish; – darsning oltin qoidalarini eslatib o‘tish. (1- <i>ilova</i>)	Suhbat	2 daqiqa

2-bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash	O‘tilgan mavzuni kichik guruhlarda «Kim chaqqon?» ta’limiy o‘yini asosida mustahkamlash. (2-ilova) Uy vazifasi 127-mashqni tekshirish. (3-ilova)	Grafik organayzer metodi	2 daqiqa 2 daqiqa
3-bosqich. Yangi mavzu bayoni	127-mashq multimedia ilova namoyishi bilan suhbat asnosida o‘tkaziladi. (4-ilova)	Suhbat, analiz-sintez	12 daqiqa 6 daqiqa
4-bosqich. Mustahkamlash	128-mashq multimedia ilova orqali namoyish etiladi. (5-ilova)	Suhbat	15 daqiqa
5-bosqich Darsni yakunlash	O‘quvchilardan bugungi darsda nimalar o‘rganganliklari so‘raladi. O‘quvchilarning ballari e’lon qilinadi.	Suhbat	3 daqiqa
6-bosqich. Uyga vazifa	Uyga vazifa. (6-ilova) 129-mashq tushuntirib beriladi.	Suhbat	3 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchining axborotini tinglash;
- sinf tozaligini nazorat qilish;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash.

«Bilarjonni kim yengadi?» ko‘rgazmasi asosida o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlari aniqlanib, baholanadi.

Ko‘rgazmadagi savollar:

1. Harakatni bildirgan so‘zlar qaysi so‘roqqa javob bo‘ladi?
2. Harakatni bildirgan so‘zlar tagiga nechta chiziq chiziladi?
3. Siz hozir nima qilyapsiz? Bergan javobingizdan harakatni bildirgan so‘zni ayting.
4. Siz qanday kitob o‘qidingiz?
5. Qaysi sport to‘garagiga qatnashasiz?
6. Uyda qanday ishlar bilan band bo‘lasiz?

Javoblar tinglanib, harakatni bildirgan soʻzlar haqidagi bilimlar mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.



Multimedia ilova asosida **126-mashq**dagi topishmoq oʻqib eshittiriladi.

Oq gulim, oppoq gulim,

Ushlab koʻrsam yumshoq gulim.

Oʻquvchilar berilgan rasmlardan topishmoqning javobini topadilar. Javob topilgach, quyidagi savollarga javob berishlari lozim:


- Sizga topishmoqning javobini topish uchun qaysi soʻzlar yordam berdi?
- *Oq, yumshoq.*
- Bu soʻzlarga soʻroq bering?
- *Qanday?, qanaqa?*
- Qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlar nimani bildiradi?
- *Belgini bildiradi.*

Oʻquvchilar bergan javoblardan xulosa qilinib, kitobdagi qoida keltirib chiqariladi:

Belgini bildirgan soʻzlar qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻladi.

IV. Mustahkamlash.

Ushbu koʻrinishdagi tarqatmali jadval asosida shaxs va narsalarning belgilari toptiriladi.



O‘quvchilar javoblari tinglanib, xulosalanadi.

Darslik bilan ishlash.

127- mashq.

Matn ifodali o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar matn mazmunini eshitish jara-yonida ilovadagi *qanday?*, *qanaqa?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni topadilar. So‘zlarni to‘g‘ri topsalar, so‘zning rangi o‘zgaradi. Matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchi suhbat uyushtiradi.

O‘quvchilar so‘roqlar o‘rniga matndan mos so‘zlarni topib, bo‘sh katakka joylaydilar, natijada so‘z birikmalari hosil bo‘ladi.

O‘qituvchi mashq ustida quyidagi tarqatma topshiriq asosida ishni tashkil qilishi mumkin. Matndagi barcha belgini bildirgan so‘zlarni aniqlab, jadvalni to‘ldiradilar. Topshiriqni bajargan o‘quvchilar aniqlanib, rag‘batlantiriladi.

N a m u n a :

Katta, mevali, oq, pushti, shirin, mazali.

Matndan foydalanib jadval to‘ldiriladi va o‘quvchilar daftarlariga yozadilar.


Qanday?	Nima?
	bog‘
	rang
	mevalar
	daraxtlar

O‘qituvchi **127-mashq**ni ushbu metoddan foydalangan holda ham tashkil etishi mumkin.

«**Grafik organayzer**» **metodidan maqsad:** o‘quvchi berilgan matndan topshiriqdagi so‘zni ajrata olishi va tartib bilan yoza olishi kerak. Buning uchun matnda *nechta?*, *qanday?*, *qanaqa?* so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar bo‘lsa, shuncha grafik ajratiladi. O‘quvchiga qulaylik bo‘lishi uchun grafiklar tartib raqami bilan raqamlab chiqiladi.

O‘quvchilarga grafik tarqatmalar tarqatiladi, o‘quvchi matnni o‘qib, belgini bildirgan so‘zlarni topib, yozib chiqadi.

O‘quvchilarning ishlari tayyor bo‘lgach, tekshiriladi.



128-mashq og‘zaki bajariladi. Chiziqchalar o‘rniga mos so‘zlar qo‘yib, gaplar o‘qitiladi.

1. Polizda **shirin** qovunlar pishdi.
2. Men **qiziqarli** ertak o‘qidim.
3. Bozordan **qizil** olma sotib oldik.

O‘quvchilarga savollar beriladi va javoblari eshilib, izohlanadi.

Qanday qovun? – shirin qovun.

Qanday ertak? – qiziqarli ertak.

Qanday olma? – qizil olma.

Shundan so‘ng **ijodiy diktant** o‘tkaziladi. Buning uchun o‘qituvchi quyidagi so‘zlarni o‘qiydi. O‘quvchilar shu so‘zlarga mos belgilarni topib, daftarlariga yozadilar.

N a m u n a :

Olma, paxta, daraxt, kitob, qalam.

Yashil olma, oppoq paxta, baland daraxt, qiziqarli kitob, yashil qalam.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyda **129-mashqni** bajarib kelish topshirig‘I beriladi. Belgini bildirgan so‘zlarga mos shaxs yoki narsaning nomini bildirgan so‘zlarni topib, namunada-gidek yozib kelish aytiladi.

N a m u n a :

*chiroyli shahar
shirinso‘z ustoz
aqlli bola*

*odobli o‘quvchi
mahmadona qizcha
go‘zal o‘lka*



53 - d a r s

MAVZU: SHAXS VA NARSANING MIQDORINI BILDIRGAN SO‘ZLAR

a) ta’limiy maqsad: nechta?, qancha?, nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni so‘roqlar yordamida aniqlash, ularni so‘roqlar yordamida boshqa so‘zlardan farqlashga o‘rgatish, miqdorni bildirgan so‘zlarni imloviiy to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: tabiatni asrash, uni ardoqlashga, undan oqilona foydalanishga o‘rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar lug‘atini sanoqni bildirgan so‘zlar bilan boyitish va so‘zlardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatib borish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, induktiv uslub.

Dars jihozi: har xil rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchining axborotini tinglash;
- sinf tozaligini nazorat qilish;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rab baholash.

Uy vazifa va o‘tilgan mavzuni so‘rash uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

– Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?

– Qanday so‘zlar belgini bildiradi?

– Belgini bildirgan so‘zlarga misollar keltiring.

Uyga vazifa **136-mashq** daftardan og‘zaki o‘qitish orqali tekshiriladi:

Chiroyli nima? – chiroyli gul.

Shirin nima? – shirin olma.

A‘lochi kim? – a‘lochi bola.



Husnixat daqiqasi o‘tkaziladi. So‘zlar husnixat asosida yoziladi.

O‘zi kichkina, ingichka, kokili uzun.

(Igna, ip)

III. Yangi mavzu bayoni:

Multimedia ilovada raqamlar ushbu katakda ko‘rsatiladi, o‘quvchilar ularning har biriga so‘roq beradilar. Rasmlar asosida beshta raqamni nom bildirgan so‘z bilan yozadilar.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----

N a m u n a :

Bitta olma, ikkita jo‘ja, to‘rtta anor, sakkizta kitob.

Mashq bajarilgach, o‘qituvchi quyidagi savollar asosida suhbat uyushtiradi:

– Miqdorni bildirgan so‘zlarga qanday so‘roq beriladi?

– Necha?, nechta? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar shaxs va narsalarning nimasini bildiradi?

O‘quvchilarning bergan javoblari umumlashtirilib, darslikda berilgan qoida keltirib chiqariladi:

**Sanoqni bildirgan so‘zlar necha? yoki nechta?
so‘rog‘iga javob bo‘ladi.**

IV. Mustahkamlash.

«Rasmlarni joylashtir» didaktik o'yini.

O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadilar. Guruhga bo'lish o'qituvchining ixtiyoriy usulda amalga oshiriladi.

O'quvchilarga rasimli kartochkalar tarqatiladi, rasmlarni tartib bilan o'sib borish tartibida joylashtirish kerakligi aytiladi. Raqamli kartochka yoniga olib borib yopishtiradi. O'quvchi tarqatma rasmdagi hayvonlar soniga qarab sonlarni tanlaydi va doskaga yopishtiradi.



Namuna: *bitta kapalak, ikkita to'tiqush, uchta quyon, to'rtta jo'ja.*

Xulosalovchi suhbat o'tkaziladi:

– Rasmda nechta hayvon bor ekan?

– bitta kapalak, ikkita to'tiqush, uchta quyon, to'rtta joja, uchta kuchuk...

Darslik bilan ishlash.

138-mashq. «Laylaklar» sheʼri ifodali oʻtib eshittiriladi. Nechta? soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar aniqlanadi va husnixat asosida koʻchiriladi.

*Moʻjaz hovuz,
Qoʻsh olmurut,
Bir juft chinor.
Uch tup yashil
Baqaterak
Adil turar.*

*Ikki laylak
Xashak tashir,
Bir daraxtni
Makon etdi,
Ark qildi.*

Tursunboy Adashboyev

N a m u n a : *Bir juft, uch tup, ikki laylak, bir daraxtni.*

Lugʻat ustida ishlash:

makon – *vatan, uy-joy, qoʻnim topadigan joy*

moʻjaz – *ajoyib, gʻalati, gʻaroyib, goʻzal, ixcham, kichkina*

olmurut – *nokning maydaroq turi*

ark – *ichki qalʼa, qoʻrgʻon*

adil – *tik*

qoʻsh – *ikkita, juft*

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Oʻquvchilarga savollar berish orqali darsga yakun yasaladi. Javoblaridagi soʻzlardan qaysi biri miqdorni bildirayotgani aniqlanadi:

- Siz nechanchi sinfda oʻqiyapsiz?
- Biz **birinchi** sinfda oʻqiyapmiz.
- Sinfingizda nechta oʻquvchi bor?
- Sinfimizda **35 ta** oʻquvchi bor.
- Aʼlochi oʻquvchilar nechta?
- Aʼlochilar **oʻnta**.

VI. Uyga vazifa berish.

139-mashq uyga vazifa qilib beriladi. Oquvchilarning raqamlarni harfiy ifodalar bilan yozish, ularga soʻroq berishini bilib kelishi, topishmoqlarning javobini topib yozishi aytiladi.

1 yil – 12 oy

1 fasl – 3 oy

1 oy – 30–31 kun

1 hafta – 7 kun

1 sutka – 24 soat

N a m u n a : *bir yil – o‘n ikki oy.*



54 - d a r s

MAVZU: SHAXS VA NARSANING MIQDORINI VA TARTIBINI BILDIRGAN SO‘ZLAR

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: shaxs va narsaning tartibini bildirib, nechanchi? so‘rog‘iga javob bolgan so‘zlarni so‘roqlar yordamida aniqlash, ularni so‘roqlar yordamida boshqa so‘zlardan farqlashga o‘rgatish, tartibni bildirgan so‘zlarni imloviy to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: tabiatni asrash, uni ardoqlashga, undan oqilona foydalanishga o‘rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar lug‘atini sanoq bildirgan so‘zlar bilan boyitish va so‘zlarni o‘rnida qo‘llashga o‘rgatib borish, raqamlarni so‘z bilan yozishga o‘rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars uslubi: suhbat.

Dars jihozi: har xil rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- navbatchining axboroti;
- sinf tozaligini, o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O‘tgan mavzuni so‘rab baholash.

Uy vazifani va o‘tilgan mavzu **139-mashq** namunadagidek o‘qitiladi va daftarlar tekshiriladi:

Bir yil – o‘n ikki oy.

Bir fasl – uch oy.

Bir oy – o‘ttiz kun yoki o‘ttiz bir kun.

Bir hafta – yetti kun.

Bir sutka – yigirma to‘rt soat.

O‘quvchilarga «**Sonli rebus**» o‘yini sharti tushuntiriladi.

Shu sonlarni so‘z bilan yozib, joy, hayvon va ovqat nomlarini topishlari kerakligi aytiladi.

1. **Uchtepa tumani** – 3 raqami va tepalik rasmi.
2. **Tortko‘z** – 4 raqami va ko‘z rasmi.
3. **Beshbarmoq** – 5 raqami va barmoq rasmi.
4. **Oltiariq tumani** – 6 raqami va ariq rasmi.
5. **Sakkizoyoq** – 8 raqami va oyoq rasmlari.



Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

140-mashq namunaga qarab o‘qitiladi.

N a m u n a : 1-sinf – birinchi sinf, ...

7-ko‘cha – yettinchi ko‘cha.

5-qator – beshinchi qator.

2-farzand – ikkinchi farzand.

3-uy – uchinchi uy.

Raqamlarni so‘z bilan yozib, savol beriladi:

– Oylang, chiziqcha o‘rnida qanday qo‘shimcha yozildi?

– Chiziqcha o‘rniga *-inchi* qoshimchasi yozildi.

O‘quvchilarning javoblari umumlashtirilib, darslikdagi qoida keltirib chiqariladi:

Shaxs va narsaning tartibini bildirgan so‘zlar nechanchi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Tartib sonlar raqam bilan yozilganda chiziqcha (-) bilan yoziladi. Raqamlarni so‘z bilan yozganda chiziqcha o‘rniga *-inchi* qo‘shimchasi qo‘shiladi.

141-mashq. Raqamlarni narsa yoki shaxs nomini bildirgan so‘zlar bilan namunadagidek yozish. Doskada husnixat asosida yozdiriladi.

N a m u n a :

O‘n beshinchi qator, ikkinchi bilet, o‘n to‘rtinchi xona, yettinchi stol, sakkizinchi sinf.

142-mashq asosida *nechta?* va *nechanchi?* soʻroqlariga javob topish aytiladi. Oʻqituvchi sinf xonasini koʻrsatib, savollarga javob olsa ham boʻladi:

Nechta eshik? – Bitta eshik.

Nechanchi sinf? – Birinchi sinf.

Nechta deraza? – Toʻrtta deraza.

Nechanchi qator? – Ikkinchi qator.

Nechta oʻquvchi? – Oʻttizta oʻquvchi.

I. Mustahkamlash.

Dars quyidagi savollar yordamida umumlashtiriladi:

1. Shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan soʻzlarning soʻrogʻini ayting. (*necha?*, *nechta?*)

2. Miqdorni bildirgan qaysi soʻzlarda bir xil undoshlar ketma-ket keladi? (*bitta*, *toʻrtta*)

3. Shaxs va narsaning miqdorini bildirgan soʻzlarning tagiga qanday chiziq chiziladi? (*toʻlqinli chiziq*)

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Oʻquvchilarga savollar berish orqali darsga yakun yasaladi. Javoblaridagi soʻzlardan qaysi biri miqdor va tartibni bildirayotgani aniqlanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Uyda **143-mashq**ni bajarib kelish aytiladi. Topishmoqning javobini topib, *necha?*, *nechta?*, *qanday?* soʻroqlariga javob boʻlgan soʻzlarni topib yozish aytiladi.

1. *Besh juft oshna*
Doim ishga tashna.

(*Barmoq*)

2. *Tortta uning unung oyogʻi,*
Temir mixli tuyogʻi.
Manzilga yetishtirar,
Toshdan qattiq tuyogʻi.

(*Ot*)

Oʻquvchilarga yaxshi kayfiyat tilab, darsga yakun yasaladi.



MAVZU: NUTQ. GAP

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda nutq, matn va gap tushunchalarini hosil qilish, matn – bir voqeani ifoda etuvchi gaplar yig‘indisi ekanini, gapning fikr ifoda etishini aniqlashlariga erishish. Matn ustida ishlashda uni qayta hikoyalatish usulini qo‘llash. Og‘zaki va yozma nutqni farqlash;

b) tarbiyaviy maqsad: «Hunarli kishi xor bo‘lmas» maqolini mashq orqali tushuntirish, o‘quvchilarning hunarga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Dars turi: yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars uslubi: suhbat, analiz, tushuntirish.

Dars jihozi: tabiat tasviri berilgan rasm, lug‘at yozilgan kartochka.

Darsning borishi:**I. Tashkiliy qism:**

– salomlashish;

– navbatchining axboroti;

– o‘quvchilarni darsga hozirlash, sinf tozaligini nazorat qilish.

II. Uy vazifasini tekshirish va baholash.

Uy vazifa **49-mashq** va o‘tilgan mavzu so‘raladi.

Erta tongda turaman,

Hovlida yuguraman.

Mashq qilib bir-ikki-uch,

Chiniqaman to‘plab kuch.

Sobir Jabbor


Harakatni bildirgan *turaman*, *yuguraman*, *chiniqaman* so‘zlarining tagiga chizilganligi tekshiriladi.

Sport turlari haqida klaster olinadi va har qaysi sport turida bajariladigan harakatlar savollar asosida so‘raladi:

Futbol – to‘p tepiladi.

Boks – qo‘l bilan uriladi.

Suzish – oyoq-qo‘lda harakatlaniladi.



O‘quvchilarning sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida mam-lakatimizda sport sohasida olib borilayotgan ulkan o‘zgarishlar, bolalar sporti haqida tushuncha beriladi.



Dam olish daqiqasi o‘tkaziladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘qituvchi rasm ko‘rsatadi va shu rasm asosida savol-javob o‘tkazadi:

- Rasmda qaysi xona tasvirlangan?
- Sinf xonasi qanday ko‘rinishga ega ekan?
- O‘quvchilar nima qilyapti?
- O‘qituvchi nima qilyapti?
- O‘quvchilarning kayfiyati qanday?
- Yaxshi.
- Mana shu aytganlarimizning hammasini bir so‘z bilan nima deymiz?
- Nutq.
- Nutq necha xil bo‘lardi?
- Og‘zaki va yozma.
- Nutq nimalardan tashkil topadi?
- Gaplardan.
- Gaplar-chi?
- So‘zlardan.

Ta’limiy mashq:

Maktabda, bugun, ona tili, besh baho, men, oldim, fanidan.

Darsda, husnixat, yozdim, men, mashqni, asosida.

Xursand, mendan, bo‘ldilar, ustozim.

Mana shu soʻzlardan foydalanib matn hosil qiling.

Oʻquvchilar aralash soʻzlardan gap tuzib, matn hosil qilishadi va oʻqib berishadi:

– *Men bugun maktabda ona tili fanidan besh baho oldim. Men darsda mashqni husnixat asosida yozdim. Ustozim mendan xursand boʻldilar.*

– Mana, oʻquvchilar, biz soʻzlardan gap hosil qildik. Demak, biz fikrimizni aytilish uchun gaplardan foydalanar ekanmiz. Agar soʻzlarni bir-biriga bogʻlamasdan alohida aytsak, fikrimizni tushuntira olamizmi?

– Yoʻq.

Shundan soʻng soʻz va gap oʻrtasidagi farq qisqacha tushuntiriladi:

– **Gap fikr bildiradi, xabar beradi. Soʻz esa narsa nomini, rangni, sonni, harakatni bildiradi.**

Shundan soʻng oʻqituvchi oʻquvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etadi:

– Gap qanday harf bilan boshlanadi?

– Bosh harf bilan boshlanadi.

– Oxiriga qanday tinish belgilari qoʻyiladi?

– Nuqta.

– Demak, fikrimizni bildirish uchun gaplardan foydalanar ekanmiz. Gaplar yigʻilib nutqni tashkil etar ekan. Nutqimizni daftarda bayon etsak, yozma nutq hisoblanadi. Talaffuz qilsak, ogʻzaki nutq deyiladi.



«Pochtachi» taʼlimiy oʻyini.

Bunda oʻquvchilardan biri pochtagi sifatida sinfga kirib keladi va oʻquvchilarga bittadan surat solingan xatjild topshiradi. Har bir oʻquvchi qoʻlidagi suratda nimalar tasvirlanganligini soʻzlab beradi. Boshqa oʻquvchilar oʻrtoqlarining hikoya davomida nechta soʻzdan foydalanganini sanab boradi. Soʻzlardan koʻp va oʻrinli foydalangan oʻquvchi gʻolib sanaladi.

Oʻqituvchi:

– Demak, soʻzlardan biz nima hosil qilishimiz mumkin ekan?

– Soʻzlardan gaplar tuziladi.

– Gaplardan nima tuziladi?

– Hikoya yoki matn.

150-mashq. Multimedia ilova.

Mashqda berilgan rasm asosida hikoya tuzing. Bolalarga ism qoʻyib, rasm mazmunini soʻzlang. Siz tuzgan hikoya nima deyiladi? Nutqingiz nimalardan tuzildi?

Anvarning dadasi mohir duradgor. Ravshan aka yasagan deraza va romlariga hammaning havasi keladi. Anvar katta bo'lsa dadasiga o'xshab duradgor usta bo'lmoqchi. U o'z qo'llari bilan qushlarga in yasadi.

Shundan so'ng mashq yuzasidan qisqacha savol-javob o'tkaziladi:

– Tuzgan hikoyangiz nechta gapdan iborat?

– 4 ta gapdan.

– Hikoyani qanday bayon qildingiz?

– Og'zaki.

151-mashq. Bu mashqni bajarish uchun o'qituvchi «**Hikoya**» ta'limiy o'yinidan foydalanadi.

Darsliklar yopiladi. Mashq asosida har bir gapdagi so'zlar aralash holda doskaga yoziladi yoki qog'ozda yozilgan so'zlar doskaga yopishtiriladi. O'quvchilar shu so'zlar ishtirokida gap tuzadi. Har bir qatorga alohida vazifa beriladi, so'ng jamlanadi.

Masalan: istaydi, Anvar, bo'lishni, rassom.

1-qator: *Anvar rassom bo'lishni istaydi.*

2-qator: chizdi, osmon, rasmini, dala, u, ko'm-ko'k, beg'ubor.

U ko'm-ko'k dala, beg'ubor osmon rasmini chizdi.

3-qator: yoqdi, o'rtoqlariga, rasm.

Rasm o'rtoqlariga yoqdi.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etadi:

– Anvar haqida nimalarni bilib oldingiz? Siz qanday nutq o'qidingiz?

IV. Dars quyidagi savollar bilan umumlashtiriladi:

1. Nutq deganda nimani tushunasiz?

2. Nutqning qanday shakllari bor?

3. Og'zaki nutqqa misol ayting?

V. Darsga yakun yasash va baholash.

O'quvchilar darsda ishtirokiga ko'ra rag'batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

152-mashq. Mashq matnini o'qib, ko'chirib, berilgan hikoya nimalardan tuzilganligini aniqlab kelish topshiriladi.



MAVZU: GAP

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarda gap haqida bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish, bog'lanishli nutqini o'stirish, og'zaki nutqni yozma nutqda ifodalay olishlarini tekshirish.

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni suvni asrashga, hayvonlarni avaylashga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: gapning birinchi so'zi bosh harf bilan yozilishini o'rgatish, o'quvchilarning chiroyli va savodli yozishlarini nazorat qilish.

Dars turi: yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat metodi, analiz-sintez, induksiya.

Dars jihozi: multimedia ilova.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) salomlashish;

b) navbatchi axborotini tinglash;

d) sinf tozaligini, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uy vazifasi **155-mashq** shartiga ko'ra tekshirladi. Husnixat tarzida yozib kelingan mashq baholanadi va *qadam* so'ziga ma'nodosh so'z topiladi.

qadam – odim

III. Yangi mavzu bayoni.

156-mashq sharti o'qiladi va so'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilayotgan tovushni aytish so'raladi. Mashqdagi adabiy-orfoepik talaffuz ustida ham ishlanadi. Har bir gapning oxirida ovoz pasaytiriladi va o'qituvchi savol beradi:

– Nechta gap o'qidingiz?

– Har bir gap qanday harf bilan boshlangan?

Biz hayvonot bog'iga bordik. Bog' keng maydonni egallabdi. Hayvonot bog'ida dengiz akvariumi ham bor ekan.

Husnixat tarzida mashq ko'chirtiriladi. O'qituvchi savol beradi:

– *Dengiz akvariumi* deganda nimani tushundingiz?

Multimedia 1-ilova namoyish qilinadi.

Ekranda hayvonot bog'i tasvirlangan **156-mashq** gap chegarasi belgilanmagan holda beriladi. O'quvchi tasvir ostidagi nuqtani gap tugagan o'ringa qo'yishlari kerak. 1-topshiriq bajarilgach, ikkinchi topshiriqqa, ya'ni «keyingisi»ga o'tiladi. 2-topshiriqda o'quvchi matnda nechta gap borligini aniqlaydi. Buning uchun matn ostida tosh tasvirlari (ekranda hayvonot bog'i tasviri va yer qismidagi toshlar nazarda tutildi)da 3, 4, 5 raqamlari yozilgan bo'ladi. Tog'ri topilsa «To'g'ri», aksi bo'lsa, «O'ylab ko'ring» ovozi eshitiladi.

3-topshiriqqa «keyingisi» tugmasi orqali o'tiladi va o'quvchilar gap qanday harf bilan boshlanishini toshlardagi so'zlardan topishadi. «Bosh harf» va «Kichik harf» so'zidan to'g'ri javob «Bosh harf» so'zi tog'ri, aksi bo'lsa, «o'ylab ko'ring» so'zi eshitiladi. Matndagi «Dengiz akvariumi» so'zi boshqa rangda beriladi. O'qituvchi shu so'zni tanlaganda, izohi rasmda aks etishi lozim, ya'ni dengiz akvariumi rasmi namoyish etiladi.

1-topshiriq. Berilgan gaplarning chegarasini aniqlang.

2-topshiriq. Matnda nechta gap o'qidingiz?

3-topshiriq. Har bir gap qanday harf bilan boshlangan?



Husnixat daqiqasi o'tkaziladi. So'zlar husnixat asosida yoziladi.

*Bo'yi bir qarich, soqoli ikki qarich.
(makkajo'xori)*



Dam olish daqiqasi o'tkaziladi. Videolavhada qiz va o'g'il bola she'r aytib, she'r mazmuniga mos harakatlarni bajaradilar.

157-mashq sharti og'zaki tushuntiriladi. Mashq og'zaki o'qitiladi. O'qituvchi savol beradi. Nechta gap o'qidingiz? Gapning birinchi so'zi qanday harf bilan boshlangan?

Quddus Muhammadiy

Quddus Muhammadiy – bolalarning sevimli shoiri. Bolalar shoirning «Tabiat alifbesi» kitobini sevib o'qiydilar. Bu kitob ona tabiatni va jonivorlarni sevishga o'rgatadi.

Ko'chiring. Gap nimalardan tuzilganligi o'quvchilardan so'raladi va multimedia 2-ilova orqali **157-mashq** matnidagi tushib qolgan so'zlarni

o‘quvchilar joyiga qo‘yishlari zarurligi aytiladi. Matnning o‘ng burchagida Quddus Muhammadiyning portreti turadi.

1-topshiriq. Gaplardagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘ying.

Quddus Muhammadiy

Quddus Muhammadiy – bolalarning _____ shoiri. Bolalar shoirning _____ kitobini sevib o‘qiydilar. Bu _____ ona tabiatni va jonivorlarni sevishga o‘rgatadi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *sevimli, «Tabiat alifbesi», kitob.*

2-topshiriq. «Gaplar nimalardan tuziladi?» deb savol beriladi. Savolga javoblar daftar varag‘ida yozma holda «So‘z», «Bo‘gin», «Tovush» so‘zlari yozilgan bo‘lib, to‘g‘ri javob «So‘z»ni topsalar, «To‘g‘ri» degan ovoz keladi, aksi bo‘lsa «O‘ylab ko‘ring» degan ovoz eshittiriladi.

3-topshiriq. Gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo‘yiladi? Savolga javoblar daftar varag‘ida yozma holda nuqta, vergul, ikki nuqta tinish belgilari beriladi. O‘quvchi to‘g‘ri javob «nuqta»ni belgilashi kerak.

IV. Darsga yakun yasash va baholash. O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra rag‘batlantirilib, baholanadi hamda daftarlar tekshirish uchun yig‘ib olinadi.

VI. Uyg‘a vazifa berish.

158-mashq sharti tushuntiriladi. Mashqni ko‘chirib, joy va shaxs nomlarining tagiga chizib kelish topshirig‘i beriladi.

O‘quvchilarga yaxshi kayfiyat tilab, darsga yakun yasaladi.

HUSNIXAT DAQIQALARI UCHUN NAMUNALAR

O‘quvchilarni chiroyli yozishga o‘rgatish, ularda husnixat malakalarini hosil qilish uchun ona tili darslarida aniq reja asosida tizimli ish olib boriladi. Bola maktabga qadam qo‘ygan kundanoq yozuv daftaridan to‘g‘ri foydalanishga, ularni ozoda saqlashga o‘rgatib boriladi.

O‘qituvchi o‘quvchining yozuv qurollari va materiallarini muntazam tekshirib borishi muhim vazifa sanaladi. Dastur talabi boyicha 1-sinf o‘quvchilari uchun yozuv yo‘li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo‘lgan qiya chiziqlari siyrak bo‘lgan ikki chizikli daftar tavsiya etiladi.

1-sinfda II yarim yillikdan boshlab o‘quvchi daftariga sana va oy yozdiriladi. Xatboshiga amal qilishga o‘rgatish uchun daftar hoshiyasi bo‘lishi shart. Daftarga sarlavha yozdirilganda sarlavha va matn orasida satr qoldirilmaydi.

Daftarda xatoni to‘g‘irlash yo‘li o‘rgatiladi. Bu holda xato harfning ustidan chiziq tortib, ustiga to‘g‘risini yozishga odatlantiriladi. Daftarlari yig‘ib olinib uy vazifasi tekshiriladi va baholanadi.

Yozuv materiali bo‘lgan daftarni yuritishda quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Daftarga toza va aniq yozish.
2. Daftar muqovasidagi yozuvlar yagona talab asosida yozilishi, unda daftar qaysi fan uchun tutilganligi, nechanchi sinf, maktabning nomi va raqami, o‘quvchining ismi va sharifi ko‘rsatib o‘tilishi shart.
3. 1-sinf o‘quvchilarining daftarlari muqovasi o‘qituvchi tomonidan yoziladi.
4. 1-sinfdan boshlab mashq tartib raqami, qayerda bajarilganligi (sinfda yoki uyda) yozib qo‘yiladi.
6. Harf yoki bo‘g‘in hamda so‘zlarning tagiga ehtiyotkorlik bilan tekis chiziladi.
7. Xato yozilgan harf yoki harfiy birikmalar namuna sifatida daftar hoshiyasiga yozib ko‘rsatiladi.
8. Noto‘g‘ri yozilgan harflarni bo‘yash, o‘chirish yoki qavs ichiga olib qo‘yishga ruxsat etilmaydi.
9. Mashqlarni bajarishda, matn yozishda xatboshidan yozish qoidalariga amal qilish talab etiladi.

Chiroyli husnixat bilan yozishga erishishda yozuv qurolining ahamiyati katta. Hozirda yozuv quroli sifatida sharikli ruchkadan foydalanish tavsiya etiladi. Sharikli ruchka yozish uchun qulay, ingichka, yengil, barmoqlar orasida tutishga mos. Ruchka barmoq orasida tutilganda ruchka uchi bilan barmoq oralig‘i 1,5–2 *sm* ga teng bo‘lishi shart. Aks holda barmoqni ruchka uchidan uzoq ushlab yoki juda yaqin tutish yozuv sifatini buzadi, harflarni xunuk yozishga olib keladi.

Sharikli ruchkada maxsus siyoh bilan to‘ldirilgan sterjenning bo‘lishi undan ancha vaqt foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ruchka sterjeni siyohi faqat binafsha rangda bo‘lishi talab qilinadi.

Husnixat materiallari ona tili darslarida o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash bosqichida mavzuga bog‘langan holda tashkil etiladi. Quyida husnixat daqiqalari uchun materiallar keltiriladi. Ona tili darsida o‘qituvchidan ushbu materiallar o‘quvchilarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ozodalik, ahillik, jamoatchilik, ilm olish va topqirlik xislatlarini tarbiyalashi uchun ijodiy yondoshishi talab etadi.

Aa, Aa

Adiba aqlli qiz.
Aytar soʻzni ayt, aytmas soʻzdan qayt.
Aytilgan soʻz otilgan oʻq.
Aybsiz doʻst izlagan doʻstsiz qolar.
Ayibini yashirmoq nodonlar ishi.

Bb, Bb

Bola aziz, odobi undan aziz.
Bilgan odam qoʻli bilan quyon ovlar.
Bir qop un, ichida ustun. (jiyda)

Dd, Dd

Diyor daraxtlarni oqladi.
Dilning kaliti – til.
Doʻstning koʻzi ayb koʻrmas.

Ee, Ee

Elyor ertak oʻqidi.
Ekin ekkan tekin yer.
Eksang terak, elga kerak.

Ff, Ff

Fargʻona goʻzal shahar.
Fikri ravshannig soʻzi ravshan.
Fikrsiz odamdan tosh yaxshi.

Gg, Gg

Gapning kaltasi, arqonning uzuni yaxshi.
Gap egasini topar.
Gapdan gap chiqar, choʻpdan – xas.

Hh, Hh

Hunar, hunardan rizqing unar.
Haq egilar, nohaq sinar.
Haq ishni xalq qoʻllar.

Ii, Ii

Ilmli olar, ilmsiz oldirar.
Ilm istasang, takror qil.
Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq.
Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

Jj, Jj

Jamshid jumboqni yechdi.
Jabrga sabr chidamas.
Javob oltin bo‘lsa, savol – kumush.

Kk, Kk

Ko‘p o‘yla, kam so‘yla.
Kishi baxti taxtida emas, aqlida.
Kitobsiz aql – qanotsiz qush.

Ll, Ll

Lafz – puldan qimmat.
Lola laylak chizdi.
Laziz va Latif inoq do‘st.

Mm, Mm

Mehnat – rohatning poydevori.
Mard tuzar, nomard buzar.
Mehr xazinasi – til.

Nn, Nn

Non mo‘lligi – el to‘qligi.
Non yemoqchi bo‘lsang, o‘tin tashishdan erinma.
Non – asli don.
Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma.

Oo, Oo

Odobli bola – elga manzur.
Oltin olma, duo ol.
Ona bilan bola – gul bilan lola.

Pp, Pp

Paxta – milliy boyligimiz.

Pak-pakana bo‘yi bor, yetti qavat to‘ni bor. (karam)

Pishirsa osh bo‘lar, pishirmasa qush bo‘lar. (tuxum)

Qq, Qq

Qobil farzand – jonga payvand.

Qovun qovundan rang olar.

Qush qanoti bilan, er – himmati bilan.

Rr, Rr

Raim marraga birinchi keldi.

Rejali ish – tejamli ish.

Rang ko‘r, hol so‘r.

Ss, Ss

Sog‘ tanda sog‘lom aql.

Sanamay sakkiz dema.

So‘z ko‘rki – maqol.

Tt, Tt

Til – aql o‘lchovi.

Tanballik – kulfat, mahmadanalik – ofat.

To‘g‘ri o‘zar, egri ozar.

Uu, Uu

Ustoz – otangdek ulug‘.

Uyday joyni olar,

Sichqondan qo‘rqar. (fil)

Usti zahar, ichi tosh, uning ichi asal. (yong‘oq)

Vv, Vv

Vatani borning baxti bor.

Va‘da – quruq, bajarilsa – ulug‘.

Vohid varrak yasadi.

Xx, Xx

Xolida xolasiga xat yozdi.
Xalq puflasa, bo‘ron bo‘lar.
Xon kiyimi ham o‘lchab bichilar.
Xo‘roz hamma yerda bir xil qichqirar.

Yy, Yy

Yetti o‘lchab, bir kes.
Yoshlikdagi g‘ayrat – keksalikdagi rohat.
Yolg‘on uyaltirar, rost suyuntirar.

Zz, Zz

Zargar firibgar bo‘lsa, oltin zanglar.
Zamon yomon emas, zamonga boqmagan yomon.
Zarrani qadr etmagan, zarni ham qadr etmas.
Zar qadrini zargar bilar, dur qadrini – savdogar.

O‘o‘, O‘o‘

O‘z uyim – o‘lan to‘shagim.
O‘zingni o‘zing maqtama, seni bиров maqtasin.
O‘rinli so‘z o‘qdan o‘tkir.

G‘g‘, G‘g‘

G‘ayratsiz bilak – o‘rinsiz tilak.
G‘azab – oldinda, aql – keyinda.

TOPISHMOQLAR

Daraxt va mevalar

Yozda kiynadi,
Qishda yechinadi.

(daraxt)

Bir qop un,
Ichida ustun.

(jiyda)

Qo‘shaloq tovoq,
Ichi tola yog‘.

(yong‘oq)

Eshigi, oynasi yo‘q,
Hujrada mehmon to‘liq.

(anor)

Osh ichida tosh,
Tosh ichida yana osh.

(o‘rik)

Gulsiz bo‘lar mevasi,
Shirin-shakar donasi.

(anjir)

O‘simliklar

Bo‘yi bir qarich,
Soqoli ikki qarich.

(makkajo‘xori)

Qizil qiz yer ostida,
Sochlari yer ustida

(sabzi)

Ariq bo‘yida to‘shak.

(maysa)

Pastgina bo‘yi bor,
Qavat-qavat to‘ni bor.

(piyoz)

Yer tagida qator qoziq.

(sabzi)

Uy-ro‘zg‘or buyumlari

Bir o‘ra, bir o‘raning ichida ming o‘ra.

(angishvona)

O‘zi kichkina, ingichka, kokili uzun.

(igna, ip)

Bir chuqurda ming chuqur.

(angishvona)

O‘zi bitta, qulog‘i to‘rtta.

(qozon)

Hammaga to‘n tikadi,
O‘zi yalang‘och.

(igna)

Onalari tokchadan tushsa,
Bolalari yugurib keladi.

(choynak, piyola)

Past osmondan qoryogʻar.

(*elak, un*)

Tap-tap etadi,

Tagidan karvon oʻtadi.

(*elak*)

Yangi idish, tagi teshik.

(*elak*)

DAM OLIISH DAQIQALARI UCHUN NAMUNALAR

1. Qoʻllarimiz ishlatamiz,
Oldi tomon koʻrsatamiz,
Orqa tomon choʻzamiz,
Quv nab qarsak chalamiz.

2. Bobomiz Mir Alisher
Besh dostonni yaratgan.
Oʻzbek xalqin dunyoga
Koʻz-koʻz qilib taratgan.

3. Baliq kabi suzamiz,
Shamol kabi esamiz.
Biz bilagʻon bolamiz,
Qushdek parvoz etamiz.

4. Yozib charchar qoʻlimiz,
Oʻqib tolar koʻzimiz.
Boshimiz qoʻyib asta,
Dam olamiz ohista.

5. Ayiq yurar lapanglab,
Quyvon yuradi sakrab.
Ayiqlarning uyi katta,
Quyvonnikini kichkina.

6. Hoy olma, olma, olma,
Meni ovora qilma.
Biroz egil, boʻy choʻzay,
Olmalaringdan uzay.

7. Pingvin xola pazanda,
Piyoz, sabzi qozonda.
Peshin palov pishsin deb,
Ish boshlagan azonda.

8. Sumalakjon, sumalak,
Buncha shirin boʻlmasang.
Qariyalar kovlaydi,
Senga mehr tilaydi.

9. Mushugim nomi Baroq,
Oyoqlari oq paypoq.
Karavotda yotadi,
Rossa xurрак otadi.

10. Barmoqqa barmoq tuk-tuk,
Barmoqqa barmoq tuk-tuk.
Endi mana bunday chapak chalamiz –
Qoʻllarimiz chiroyli.
Endi mana bunday aylanamiz –
Oyogʻimiz chiroyli.
Endi bunday doʻpillatamiz.
(Ushbu dam olish daqiqasining soʻzlari
qoʻshiq qilib aytiladi)

11. Oyogʻimiz taq-taq-taq,
Qoʻllarimiz chapak-chapak,
Boshimiz charak-charak.
Qoʻlimizni koʻtardik,

Sekingina tushirdik.
Endi ehtiyot bo‘lib
Joyimizda o‘tirdik.

12. Dikir-dikir sakraydi
Uzun quloq quyoncha.
Mahkam ushlab qornida
Sabzisini quyoncha.

13. Ko‘kda qanotin qoqqan,
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.
Bahor faslin chorlagan,
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.
Osmonlarda sayragan,
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.
Yaxshilikni tilagan,
Qaldirg‘ochim, qaldirg‘och.

O‘quvchilar uchun ona tili fanidan mustaqil ish topshiriqlari

O‘quvchilarda o‘quv-biluv ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda ona tili fanidan amaliy faoliyatga yo‘llovchi mustaqil ishlar katta rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarning mustaqil ishlari – bu o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin belgilangan vaqtda uning topshirig‘i asosida bajariladigan ishlardir. Mustaqil ishlash metodlari o‘qitishning ta‘lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi.

Ta‘limiy jihatdan bu metodlar nazariy bilim, amaliy ko‘nikmalarni mustaqil egallashga, ularni takrorlash, mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam beradi.

Tarbiyaviy ma‘noda ular shaxsning mustaqillik, mehnatsevarlik, mas‘uliyatlilik kabi xislatlarini tarbiyalaydi.

Mustaqil ishlarni bajarish uchun o‘quvchilar uchun sharoit, imkoniyat bo‘lishi lozim, ya‘ni darslik, ma‘lumotnomalar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; o‘zini o‘zi nazorat qilish malakasini hosil qilish; mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli bajargan o‘quvchilarni rag‘batlantirish, qiziq-tirish va tanqidiy baholash; mustaqil ishlarni tashkil etishda differensial hamda individual yondashish kabi. O‘quvchilar ko‘magida mustaqil tayyorlangan didaktik materiallardan ham foydalanish o‘rinlidir.

Ona tili darslarida o‘quvchilar tomonidan quyidagi mustaqil ishlar bajarilishi mumkin:

1. Darslikdagi mavzu matnini o‘rganish.
2. Berilgan mavzuga oid mashqlarni bajarish.
3. Test topshiriqlarini mustaqil bajarish.
4. Jadvallar va sxemalar bilan ishlash.
5. Mavzuga oid tarqatma materiallar ustida ishlash.

6. Ona tili fanidan boshqotirmalar, topishmoqlar, krossvord va boshqa turli individual vazifalarni bajarish.

7. Yozma ishlar yozish.

Odatda, topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab tuziladi va har bir topshiriq ma'lum bir didaktik maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'qituvchi dars boshlanishi bilan bilimga qiziqish paydo bo'lishi muhimligini e'tiborga olgan holda metodikaning turli usullarini qo'llaydi. Ularning eng muhimlari 3 ta holatga tegishli: birinchidan, o'quvchilar diqqatini dars maqsadi va vazifalariga qaratish; ikkinchidan, takrorlanayotgan va yangidan o'rganilayotgan material mazmuniga qiziqish uyg'otish; uchinchidan, o'quvchilarning ular uchun qiziqarli bo'lgan ish shakliga kirishishini ta'minlash.

O'quvchilarning yangi materialni faol idrok qilishlari uchun ona tili yuzasidan turli muammoli vaziyatlar yuzaga keltiriladi.

O'tilgan materialni takrorlash ham bilimga qiziqish paydo qilishga va olingan bilimning mustahkamlanishiga asos bo'lishi hamda o'rganilayotgan materialning eng muhimiga diqqatni jalb qilishi mumkin.

O'qituvchi darslarda yangi material o'rganilganidan so'ng yoki o'rganish jarayonida darslik bilan ishlashga doir topshiriqlar beradi. Mustaqil ishlashga dars davomida faqat mashqlar beriladi. Buning o'zigina yetarli emas. Qo'shimcha topshiriqlar ham ishlab chiqish lozim.

O'quvchilar mustaqil ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'quv jarayonida ularga darslikdan samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

1-topshiriq. «Juftini top!»

Oila a'zolarining juftini toping.

buva	<i>buvi</i>
ota	<i>ona</i>
aka	<i>uka</i>
opa	<i>singil</i>
tog'a	<i>amaki</i>
xola	<i>amma</i>
do'st	<i>dugona</i>

2-topshiriq. «Ortiqchasini top!» ta'limiy o'yini.

So'zlar qatorida umumiy bo'lmagan so'zlarni husnixat asosida yozing.



Namuna: *Bolalar, Jasur, dushanba, shamol, dars.*

3-topshiriq. Boshqotirma.

«Qovunlar» she'ridan foydalanib, tushib qolgan unli harflarni o'z o'rniga qo'yib, katakchalarni to'ldiring.

b		r		k		l	l	
k		k	t		r	n		
	n		n		s			
	s		t					

N a m u n a : *bo'rikalla, ko'kturna, ananas, asati.*

4-topshiriq. «Sirli so'z» ta'limiy o'yini.

Ushbu katakchalarda nechta non so'zi bor?

n	o	n
o	o	o
n	o	n

N a m u n a : *katakchalarga 12 ta non so'zi yashiringan*

5-topshiriq. Boshqotirma.

Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Qoraqalpog'iston shaharlar nomini ushbu katakka shunday joylashtiringki, natijada yashil rangli katakda **shaharlar** so'zi hosil bo'lsin.

7-topshiriq. «Yashiringan soʻzni top!»

Ushbi katakdagi harflardan soʻzlar hosil qiling.

a	t	y
x	sh	o
t	oʻ	p

N a m u n a : *poytaxt, paxta, xat, toʻp, yosh.*

8-topshiriq. «Adashgan harflar» taʼlimiy oʻyini.

Katakchadagi adashgan harflardan soʻzlar hosil qiling.

k	t	m	a	b	a
m	a	k	t	a	b

u	ch	oʻ	i	v	q
oʻ	q	u	v	ch	i

9-topshiriq. «Oʻz oʻrnini top!» taʼlimiy oʻyini.


Tartibsiz berilgan soʻzlardan gap tuzing. Tuzgan gapingizdagi soʻzlar raqamini boʻsh kataklarga yozib chiqing.

1 yogʻdi	2 Bugun	3 yomgʻir
3	1	2

1 qiziqarli	2 olib	3 Oyim	4 keldilar	5 kitob	6 menga
3	5	1	6	4	2

10-topshiriq. «Kim birinchi?» taʼlimiy oʻyini. Buning uchun oʻquvchilar ikki boʻgʻinli soʻzlarni katakchalar ichiga yozib chiqishlari kerak boʻladi.

Namuna:



11-topshiriq. «Mening oilam». Buning uchun o'quvchilar o'z oila a'zolarining ismi va familiyasini jadvalga yozib chiqadi.

	Ismi	Familiyasi
ota	Ahmadali	Abdurahmonov
ona	Sanobar	Abdurahmonova
opa	Dilorom	Abdurahmonova
aka	Akbarali	Abdurahmonov
singil	Munisa	Abdurahmonova
uka	Ulug'bek	Abdurahmonov

1. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». («Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»). – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. 64-b.
2. *K. Qosimova, S. Matjonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev.* Ona tili o‘qitish metodikasi. T., TDPU, 2009.
3. «Boshlang‘ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti». Boshlang‘ich ta’lim, 2006. 5-son.
4. «Boshlang‘ich ta’limning takomillashtirilgan o‘quv dasturi». «Boshlang‘ich ta’lim», 2006. 5-son.
5. *T. G‘afforova.* «Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar». T, 2011.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I–V tomlar.
7. *T. G‘afforova, E. Shodmonov, X. G‘ulomova.* Ona tili. 1-sinf uchun darslik. «Sharq», 2013.
8. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq», 2005.
9. *X. G‘ulomova va boshqalar.* Husnixat o‘qitish metodikasi. TDPU, 2013.
10. *T. Gafforova, X. G‘ulomova.* «1-sinfda ona tili darslari» metodik qo‘llanmasi. «Sharq», 2003.

MUNDARIJA

Soʻzboshi.....	3
Boshlangʻich sinfda «Ona tili» fanini oʻqitishning maqsad va vazifalari.....	4
Taʼlim jarayonida ilgʻor pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib oʻtiladigan dars namunalari.....	7
1-dars. Ona tili haqida suhbat	7
2-dars. Tovush va harf	14
3-dars. Tovushlar va harflar	16
4-dars. Unli tovushlar va harflar.....	20
6-dars. I va u unlilari.....	26
9-dars. Unli tovushlar va harflarni mustahkamlash	29
10-dars. Undosh tovushlar va harflar	33
13-dars. J harfi va j tovushli soʻzlar (32–33-mashqlar).....	35
14-dars. Harf birikmalari	39
18-dars. Aytilishi va yozilishida farqlanuvchi undoshlar	43
19-dars. Tutuq belgisi	48
22-dars. Alifbo.....	51
25-dars. Boʻgʻin	54
30-dars. Soʻzlarni boʻgʻinlab koʻchirish.....	58
32-dars. Soʻzning maʼnosi	62
33-dars. Soʻzning maʼnosini (Mustahkamlash)	66
35-dars. Shaxs va narsaning nomini bildirgan soʻzlar	70
37-dars. Kishilar ismi va familiyasining bosh harf bilan yozilishi	73
39-dars. Joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi	78
43-dars. Shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlar	81
47-dars. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan soʻzlar	86
53-dars. Shaxs va narsaning miqdorini bildirgan soʻzlar.....	91
54-dars. Shaxs va narsaning miqdorini va tartibini bildirgan soʻzlar	
57-dars. Nutq. Gap	
60-dars. Gap	102
Husnixat daqiqalari uchun namunalar	104
Dam olish daqiqalari uchun namunalar	111
Oʻquvchilar uchun ona tili fanidan mustaqil ish topshiriqlari	112
Foydalanilgan adabiyotlar	118

U. MASHARIPOVA, M. UMAROVA, D. BAYNAZAROVA

ONA TILI

1-SINF

*(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun
ilg'or pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalarni
ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma)*

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2014

Muharrir *N. O'rolova*
Badiiy muharrir *F. Basharova*
Texnik muharrir *B. Karimov*
Sahifalovchi *L. Soy*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-yil

Bosishga ruxsat etildi 17.09.2014. Bichimi 70x90 $\frac{1}{16}$.
Times garniturasini kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 9,67. Nashriyot-hisob tabog'i 7,98.
Adadi 80000 nusxa. Buyurtma № 3641.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.**